

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI

---

Allaberganova Mohira Sulton qizi  
5111100 – Musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha  
(shifri va ta'lim yo'nalishi nomi)  
bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: «O'zbek musiqa tarixi xalq musiqa madaniyatining  
ajralmas qismi»

Ilmiy rahbar:

*Musiqa ta'limi kafedrası professori  
Xudayberganov Samandar Qo'ziyevich*



Urganch 2019-yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Pedagogika**

(fakultet nomi)

**Musiq ta'limi**

(kafedra nomi)

**«O'zbek musiq tarixi xalq musiq madaniyatining ajralmas qismi»**

**Bajaruvchi:**

*Allaberganova*

**Allaberganova Mohira Sulton qizi**

**Rahbar:**

*Xudayberganov*

***Musiq ta'limi kafedrasi professori  
Xudayberganov Samandar Qo`ziyevich***

**Urganch 2019-yil**



# URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

## **Pedagogika**

(fakultet nomi)

## **Musiqa ta'limi**

(kafedra nomi)

### BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA TOPSHIRIQLAR

#### REJASI:

#### **1. Talaba Allaberganova Mohira Sulton qizi**

Universitet rektorining «2 noyabr sonli 1257 buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun «O'zbek musiqa tarixi xalq musiqa madaniyatining ajralmas qismi» mavzusi tasdiqlangan.

**2. Kafedra majlisining qaroriga** binoan bitiruv malakaviy ishini bajarishga kafedra professori *Xudayberganov Samandar Qo'ziyevich* rahbar qilib tayinlangan.

**3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:** bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalangan adabiyotlardan iborat.

**4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar:** Mazkur bitiruv - malakaviy ishda Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishish kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar №11, Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. T. "O'zbekiston" 2017 yil, Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" NMIU, 2016 yil., Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligi garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2016 yil., Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari to'plami, Jobborov K. O'zbek kompozitor va musiqashunoslari T. 2004, Ibraximov O. Sadirov J. Musiqa 7-sinf uchun darslik T. 2008, Mannopov S. O'zbek xalq musiqa madaniyati T. 2004, Mamirov K. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi T. 2009, Matyokubov O., Boltayev R., Aminov X. O'zbek notasi. I. 2009 va boshqa adabiyotlardan olinadi.

**5. Bitiruv malakaviy ishga:** O'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirishda Yevropa mumtoz musiqasining ahamiyatiga mansub suratlar ilova qilinadi.

**Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali**

№	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1	Mavzuning kafedrada tasdiqlanishi	2018 yil oktab 2
2	Bitiruv-malakaviy topshirig'i bo'yicha ishning hajm va ko'lamini belgilash	2018 yil dekabr 2
3	Maxsus adabiyotlarni o'rganish, loyiha bo'yicha pedagogik-psixologik, metodik va amaliy materiallar yig'ish	2019 yil yanvar 2
4	Loyiha bo'yicha tajriba mazmuni, hajmi va tartibini aniqlash	2019 yil yanvar 2
5	Tajriba ish (o'qish)larni tashkil qilish va o'tkazish sifati (maktab, kollej....)	2019 yil fevral
6	Bitiruv malakaviy ish loyihasining dastlabki eskizlarni tasdiqlash	2019 yil fevral
7	Bitiruv malakaviy ishning elektron varianti loyihasining dastlabki eskizlarini tasdiqlash	2019 yil mart
8	Barcha eskizlar va bitiruv malakaviy ishi loyihasining nazariy-amaliy to'la tasdiqlash	2019 yil mart
9	Bitiruv malakaviy ishi loyihasini bajarishning borishi nazorati va uning nazariy hamda amaliy qismlarning kafedradagi muhokamasi	2019 yil aprel
10	Kafedra mudiri va rahbar tomonidan tugallangan loyihani ko'rikdan o'tkazish	2019 yil aprel
11	Tugallangan bitiruv malakaviy ish loyihasini rahbar xulosasi va uni himoyaga tavsiyasi bilan birgalikda kafedraga taqdim qilish	2019 yil may

Bitiruv malakaviy ish rahbari: Abdullatif S. Rudaibergenov

Bajaruvchi talaba: Allaber ganova M.

2019 -yil « 20 » may

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2018 yil tasdiqlandi (« 10.09 »)

2 - sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: Raximov B. M.



(imzo)



**BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YICHA RAHBARINING  
MULOHAZASI**

**Talaba:** *Allaberganova Mohira Sulton qizi*

**Bitiruv malakaviy ish mavzusi:** *“O‘zbek musiqa tarixi xalq musiqa madaniyatining ajralmas qismi”*

**Bitiruv malakaviy ish hajmi:** *61 sahifadan (13957s o‘zdan) iborat*

**Tushuntirish qismi:** *61 sahifadan (13957 s o‘zdan) iborat*

**Ilovalar soni:** 5

**Mavzuning dolzarbligi:** O‘zbek musiqa madaniyati qadimiy va boy musiqiy merosga ega ekanligini yaxshi bilamiz. Shuning uchun musiqa darslari jarayonida amalga oshirilayotgan milliy musiqa ta’limining asosiy maqsadi ham o‘tib kelayotgan yoshlarni o‘zbek musiqiy merosi va musiqa madaniyatiga vorislik qila oladigan, jahon musiqa madaniyatini tushuna oladigan, ohanglardagi mavzu ma’noni qalban xis etib idrok eta oladigan shaxs sifatida kamol toptirishga qaratilgandir.

**Bitiruvchining umumkasbiy va maxsus tayyorgarligi tavsifi:** *Allaberganova Mohira Sulton qizining* umumkasbiy va maxsus tayyorgarligi yaxshi. Mavzu nazariya qismiga doir adabiyotlardan yaxshi xabardor ekanligi bitiruv malakaviy ishida o‘z aksini topgan.

Tadqiqotning metodologik asosi, Bu muammoning nazariy va amaliy

jihatlari ma’lum darajada qator olimlar Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Muhammad al-Forobiy, Firdavsiy, Barbad, Faxriddin Roziy, Safiuddin Abdulmo`min al-Urmaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqalar tomonidan ishlab chiqarilgan. Bu esa bitiruvchining pedagogik mahorat sirlaridan ham yaxshi xabardor ekanligini ko’rsatadi.

**Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari:** Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati yaxshi, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati yuqori. Allaberganova Mohira Sulton qizi tirishqoq, o‘ziga talabchan va nazariy bilimlarini amaliyotda qo’llay oladi, bilim, malaka va

ko'nikmalarini doimo oshirib boradi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari: **Bitiruv malakaviy ishida tadqiqot natijalari «O'zbek musiqa tarixi va unda xalq musiqa merosiga munosabat»** mavzuida muammoning nazariy, tarixiy asoslari tahlili natijalari yoritilgan, O'zbek musiqasining shakllanishi davrlari va undagi olimlar, op, tr vesiqasini rivojlantirish borasida olimlarimiz tomonidan qilingan ishlar haqida fikrlar yuritiladi. Bundan tashqari, O'rta Osiyo qadamiy musiqa madaniyati va ilk o'rta asrlar san'ati haqida ham mulohazalar yuritilgan. Bu esa bitiruv malakaviy ishi ijobiy tomonlarini tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi:** Ish bitiruv malakaviy ishga qo'yiladigan talablarga to'la javob beradi. Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

  


*Xudayberganov Samandar  
Qo'ziyevich*

2019-yil « 11 » 06





**Urganch davlat universiteti**

**Pedagogika fakulteti**

---

**5111100 –Musiq ta'limi yo'nalishi**

---

*Allaberganova Mohira Sulton qizining*  
**Bitiruv malakaviy ishiga**

**T A Q R I Z**

**Malakaviy ish mavzusi:** “O‘zbek musiq tarixi xalq musiq madaniyatining ajralmas qismi”

**Bitiruv malakaviy ish hajmi:** *61 sahifa, 13957 s o'zdan iborat*

**Tushuntirish qismi:** *61 sahifa, 13957 s o'zdan iborat*

**Ilovalar soni:**

**Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi:** Ta'kidlash joiz, o'zbek mumtoz musiqamiz ayniqsa Shashmaqomni bizning davrimizga yetib kelishida O'zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiyning xizmatlari beqiyos. Ayniqsa, uning o'zbek musiq merosi namunalarini to'plashdagi xizmati katta e'tiborga loyiq. 1935 yildan xalq kuyi va ashulalarini notaga yoza boshlagan Yunus Rajabiy 5 jildli “O‘zbek xalq musiqasi”, “Shashmaqom”ning 6 jildli yangi nashri hamda grammplastinka yozuvlar mukammal to'plamini tayyorlagan. Bugun bu kabi ishlar yangicha ko'rinish olishi, mukammallashtirilishi, mazkur san'at turini chuqur o'rganishga bel bog'lagan yosh yigit-qizlarimiz uchun qo'l keladi, maqom san'atining ommalashishi, sohada nazariy bilimlar jamlanishiga zamin tayyorlaydi. Bu esa tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

**Bitiruv malakaviy ishning “Kirish” qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati:** Tadqiqotning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi o'rganilishi, maqsad va vazifalarining, ob'ekti va predmeti, ilmiy yangiligi kabi masalalar o'z yechimini topgan.

**Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi:** Malakaviy ishda talaba ilmiy manbalardan unumli foydalangan. Bitiruv malakaviy ishda foydalanilgan adabiyotlar 1976, 1977,1978, 1987, 1988, 1993, 2000, 2004,2006,2007,2008 yillardagi o'quv

qo'llanmalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy maqolalarni hamda darsliklarni o'z ichiga oladi. *Allaberganova Mohira Sulton qizining* bitiruv malakaviy ishini yozishda elektron ta'lim resurslari: *www. pedagog .ru*, *www. google. ru*, *www. mail. ru* lardan samarali foydalangan.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy - uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi:** Bitiruv malakaviy ish ravon ilmiy uslubda yozilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari:**

Bitiruv malakaviy ishida tadqiqot natijalaridan O'zbek musiqa san'ati va madaniyatining rivojlanishi ilm-fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Ularning ilmiy-nazariy negizlari uzoq o'tmishdanoq puxta ishlanib kelingan. Og'zaki professional musiqaning nazariy asoslari Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy kabi buyuk musiqashunoslarning risolalarida o'z aksini topgan. Sharq musiqa ilmining ajoyib yutuqlari professional musiqaning rivojlanishida muhim tayanch bo'lib xizmat qiladi. Demak, og'zaki an'anadagi professional musiqaning mafkuriy (ratsionalistik) tomoni ham keng taraqqiy topgan.

Tadqiqot ishi natijalaridan Oliy va o'rta ta'lim muassasalarida unumli foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar:** Ayrim o'rinlarda imlo xatolariga, bayonchilikka yo'l qo'yilgan. Ammo, bu ishning umumiy qimmatiga jiddiy putur yetkazmaydi.

**Taqrizchi:**



*Urganj tumani 11-son BMSM direktori*  
*Matyakubov J.J.*

2019 yil « 12 » 06



Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti musiqa ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi **Allaberganova Mohira Sulton qizining "O'zbek musiqa tarixi xalq musiqa madaniyatining ajralmas qismi"** mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning 2019 yil «25» «06» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

<i>№</i>	<i>Baholanadigan bo'limlar</i>	<i>Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida</i>	<i>Komissiya belgilagan ball</i>
1	BMI ning «Kirish» qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	7
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35	28
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	8
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	6
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	8
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	4
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	8
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	7
Jami:		100	76

**Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:**

1. **Allaberganova Mohira Sulton qizining** « O'zbek musiqa tarixi xalq musiqa madaniyatining ajralmas qismi» mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun 76 lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilansin va «yaxshi» deb baholansin.

2. \_\_\_\_\_

DAK raisi: \_\_\_\_\_

A'zolari: \_\_\_\_\_

2019 yil «25» «06» \_\_\_\_\_

**Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti**

**«Musiqqa ta'limi» kafedrası**

Bitiruv malakaviy ish \_\_\_\_\_ sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: *Allaberganova Mohira Sulton qizi*

**Bitiruv malakaviy ishning mavzusi:** “O‘zbek musiqqa tarixi xalq musiqqa madaniyatining ajralmas qismi”

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi - sharifi: *Xudayberganov Samandar Qo‘ziyevich*

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2018 yil «20» mayda o‘tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib, *Urganch tumani 11-son BMSM direktori Matyakubov J.J.* tayinlandi.

**Kafedra mudiri:**



**Raximov B. M.**

*Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo‘yicha tavsiyasiga roziman.*

**Fakultet dekani:**



**Yarmetov J.R.**



**Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti «Musiqqa ta'limi»  
kafedrasi musiqqa ta'lim yo'nalishi bakalavr**

**«Tasdiqlayman»**

Fakultet dekani *Yarmetov* Yarmetov J.R.

«2» noyabr 2018 y.

**BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YICHA TOPSHIRIQ**

**Talaba:** *Allaberganova Mohira Sulton qizi*

**Ishning mavzusi:** *“O‘zbek musiqqa tarixi xalq musiqqa madaniyatining ajralmas qismi”* “2” 11 2018 yil universitet rektorining 125-T sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**2. Ishni topshirish muddati:** 20 may 2019 y.

**3. Mavzu bo`yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro`yxati:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishish kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahamasining 2016yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi.//Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar №11

2. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz.T.”O‘zbekiston” 2017 yil.

3. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va faravon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” NMIU,2016 yil.

4. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligi garovi. “O‘zbekiston” NMIU,2016 yil.

5. Abdullayev R.A. Musiqqa ijodiyoti masalalari to'plami va boshqa adabiyotlardan foydalanilgan.

**4.Ishning maqsadi:** O`quvchilarda musiqqa madaniyatini shakllantirishda

Yevropa mumtoz musiqasining ahamiyatini aniqlash hamda manbalarni ilmiy - nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

5. Chizma materiallar ro'yxati: Chizma materiallar yo'q.

6. Maslahatchilar: yo'q.

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
<b>O'zbek musiqa tarixi va unda xalq musiqa merosiga munosabat</b>	<i>Xudayberganov Samandar</i>	5.11.2018 <i>[Signature]</i>	16.11.2018 <i>[Signature]</i>
<i>O'zbek musiqa tarixi va unda xalq musiqa san'atining rivoji</i>	<i>Xudayberganov Samandar</i>	20.11.2018 <i>[Signature]</i>	3.12.2018 <i>[Signature]</i>
<i>O'zbek musiqa tarixining taraqqiyot yo'llari</i>	<i>Xudayberganov Samandar</i>	10.12.2018 <i>[Signature]</i>	21.12.2018 <i>[Signature]</i>
<i>Buyuk allomalarimizning musiqa san'ati tarixiga munosabatlari</i>	<i>Xudayberganov Samandar</i>	2.4.12.2018 <i>[Signature]</i>	4.01.2019 <i>[Signature]</i>
I - bob bo'yicha xulosa	<i>Xudayberganov Samandar</i>	10.01.2019 <i>[Signature]</i>	18.01.2019 <i>[Signature]</i>
<b>Musiqa xazinalari xalqning bebaho boyligi</b>	<i>Xudayberganov Samandar</i>	21.01.2019 <i>[Signature]</i>	2.02.2019 <i>[Signature]</i>
<i>Musiqa merosini saqlash va avlodlarga yetkazish</i>	<i>Xudayberganov Samandar</i>	4.02.2019 <i>[Signature]</i>	18.02.2019 <i>[Signature]</i>
<i>O'zbekistonda musiqa san'ati tarixiga e'tibor</i>	<i>Xudayberganov Samandar</i>	20.02.2019 <i>[Signature]</i>	9.03.2019 <i>[Signature]</i>
<i>Bolalarni xalq musiqasiga bo'lgan munosabatini tarbiyalash</i>	<i>Xudayberganov Samandar</i>	11.03.2019 <i>[Signature]</i>	28.03.2019 <i>[Signature]</i>
<i>Bolalar musiqa folklori xalq folklorining tarkibiy qismi</i>	<i>Xudayberganov Samandar</i>	1.04.2019 <i>[Signature]</i>	11.04.2019 <i>[Signature]</i>
II - bob bo'yicha xulosa	<i>Xudayberganov Samandar</i>	13.04.2019 <i>[Signature]</i>	22.04.2019 <i>[Signature]</i>
Umumiy xulosa	<i>Xudayberganov Samandar</i>	24.04.2019 <i>[Signature]</i>	14.05.2019 <i>[Signature]</i>

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni *Urganch tumani 11-son BMSM direktori Matyakubov J.J.*

7. Ilmiy rahbar:

*[Signature]*

*Xudayberganov Samandar Qo'ziyevich*

BMI bajaruvchi talaba:

*[Signature]*

*Allaberganova Mohira Sulton qizi*

Kafedra mudiri:

*[Signature]*

*Raximov Botir Matyakubovich*



## MUNDARIJA:

<b>Kirish</b> .....	3
<b>I-bob. O‘zbek musaqa tarixi va unda xalq musiqa merosiga munosabat</b>	
1. O‘zbek musiqa tarixi va unda xalq musiqa san’atining rivoji.....	9
2. O‘zbek musiqa tarixining taraqqiyot yo‘llari.....	15
3. Buyuk allomarimizning musiqa san’ti tarixiga munosabatlari.....	21
<b>I-bob bo`yicha xulosa</b> .....	<b>28</b>
<b>II-bob. Musiqa xazinalari xalqning bebaho boyligi</b>	
1. Musiqa merosini saqlash va avlodlarga yetkazish.....	31
2. O‘zbekistonda musiqa san’ati tarixiga e’tibor.....	36
3. Bolalarni xalq musiqasiga bo‘lgan munosabatini tarbiyalash.....	43
4. Bolalar musiqa folklori va xalq folklorining tarkibiy qismi.....	49
<b>II-bob bo`yicha xulosa</b> .....	<b>54</b>
<b>Xulosa</b> .....	<b>57</b>
Foydalanilgan adabiyotlar.....	60

## KIRISH

O'zbek musiqa madaniyati qadimiy va boy musiqiy merosga ega ekanligini yaxshi bilamiz. Shuning uchun musiqa darslari jarayonida amalga oshirilayotgan milliy musiqa ta'limining asosiy maqsadi ham o'sib kelayotgan yoshlarni o'zbek musiqiy merosi va musiqa madaniyatiga vorislik qila oladigan, jahon musiqa madaniyatini tushuna oladigan, ohanglardagi mavzu ma'noni qalban xis etib idrok eta oladigan shaxs sifatida kamol toptirishga qaratilgandir.

**Mavzuning dolzarbligi:** Insoniyat madaniyatining boshqa sohalarida bo'lganidek, musiqada ham uning tadrijiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganish jarayonida muhim xususiyatlar va qonuniyatlar yorqin namoyon bo'ladi.

O'zbek musiqa san'atining ildizlari qadim moziyga borib taqaladi. Qadimgi madaniyatning ko'pdan-ko'p obidalari buyuk o'zbek mutafakkirlari, shoirlari, yozuvchilarning boy adabiy merosi bundan guvohlik beradi.

Buyuk istiqlolning dastlabki sinovli dovonlaridan o'tishda, vatanimizda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda tub islohotlar o'tkazilayotgan bir vaqtda jamiyatimizda milliy madaniyat va san'at, ma'naviyat va ma'rifat kabi kabi insonparvar hamda taraqqiyparvar omillarga alohida diqqat-e'tibor berilmoqda. Bu o'rinda azaliy bebaho qadriyatlarimizni, xalqchil udum va an'alarimizni tobora to'laroq tiklash, tarixiy-madaniy yodgorliklarimizni, shu jumladan musiqiy merosimizni mufassal o'rgana borish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uni yosh avlodlar tomonidan ilmiy hamda amaliy jihatdan puxta o'zlashtirish uchun so'nggi yillarda barcha zaruriy shart-sharoitlar yuzaga keltirilganini e'tirof etish lozim.

Biroq oddiy mehnatkash xalq faylasuflar hamda ilg'or kishilar yaratgan asarlardan adolatsiz ijtimoiy tuzum tufayli uzoq vaqt mahrum bo'lib keldi.

Sharq fani va adabiyotining ulug' daholari Al Forobiy, Abu Ali bin Sino, Navoiy, Jomiy, Nizomiylar merosida, keyinroq esa o'zbek klassik shoirlari va ma'rifatparvarlari Muqimiy, Furqat, Nodira asarlarida yoshlarga musiqa tarbiyasi va ta'limi berish borasida talaygina qiziqarli fikrlar bildirilgan.



O'zbek xalqining musiqa san'ati juda boy va qadimiy an'analari hozirgi kunda ham o'z badiiy va estetik qadrini saqlab kelmoqda. Bu an'analar zamonaviy o'zbek musiqa madaniyatining ajralmas qismini tashkil etadi. Musiqa merosidan, xalq kuy va qo'shiqlaridan ilhom olmagan zamonaviy musiqaning biron bir sohasini topish qiyin, ommaviy estrada qo'shiqlaridan tortib, yirik xor, simfonik musiqa, opera, balet janrlarining rivojlanish jarayonini musiqa merosidan ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi.

An'anaviy musiqa merosi, bizga ma'lumki, asrlar davomida ikki asosiy yo'nalishda – folklor va professional yo'nalishda rivojlanib kelgan<sup>1</sup>.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, o'zbek musiqa merosining ko'rsatib o'tilgan har ikki qatlami bizga qadar asosan og'zaki an'ana tarzida, ya'ni nota yozuvlarisiz, og'zaki ijod etish, og'zaki o'rganish va og'zaki ijro etish orqali yetib kelgan, olimlar musiqiy merosning ana shu tabiatini inobatga olgan holda xalq musiqasini folklorning bir turi, aniqrog'i – xalq og'zaki ijodi sifatida ta'riflaydilar va unga nisbatan goho "musiqiy folklor" iborasini qo'llaydilar. Chunki folklor namunalari jonli og'zaki ijro sharoitida yaratiladi, tarqaladi, rivojlanadi hamda ular shunday sharoitda aytiladi, ijro etiladi, kuylanadi va ko'rsatiladi. Demak "xalq musiqasi" va "musiqiy folklor" tushunchalari o'zaro ma'nodoshdir. Ammo "folklor" atamasi ijodkorlari va ijrochilari ustoz-bastakor kasbiy-musiqachilar bo'lgan ikkinchi qatlam musiqa namunalariga oid ishlatilmaydi. Musiqiy merosning bu turiga nisbat odatda "og'zaki an'ana dagi professional musiqa" iborasi qo'llanib turiladi. Biz esa bu o'rinda qisqa va qulayroq bo'lgan "kasbiy musiqa" yoki "ustozona musiqa" iborasini qo'llaymiz.

O'zbek musiqa merosining ikki qatlamga ajralishi pirovardida har ikkala sohàni o'rganuvchi turli fan tarmoqli yuzasha kelgan bo'lib, ularning aksariyati musiqiy folklorni tadqiq etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Chunonchi, folklorshunoslik fani xalq musiqasi namunalarini filologik nuqtai nazardan ilmiy

---

<sup>1</sup> Suxomlinskiy V. Tarbiya haqida. Toshkent, 1980

tadqiq etsa, etnografiya ilmi ularga mahalliy rasm-rusm va an'anaviy urf-odatlar in'ikosini o'rganish jihatidan yondoshadi. Shuningdek, xalq musiqa ijodi tilshunos olimlarni (lingvist olimlarni) til qonuniyatlari, dialektologlarni shevalar xususiyati yuzasidan qiziqтира, o'tmish voqealarining qay darajada aks etganligi bilan tarixchilar diqqatini jalb etadi.

Musiqashunoslik ilmida uning mustaqil tarmog'i sifatida shakllangan etnomusiqashunoslik fani mazmunida xalq yaratgan musiqa namunalari o'rganish yetakchi o'rin tutadi hamda xalq badiiy ijodiyotining boshqa ko'rinishlari (she'riyat, raqs, o'yin va boshqalar) bilan mushtarak o'rganiladi.

Og'zaki an'anadagi professional musiqa deganda, eng avvalo, ushbu kasb namoyandalari, mohir sozanda, xonanda va bastakorlarning ijodiy mahsuloti bo'lmish maqomlar hamda shunga o'xshash yirik shakldagi murakkab kuy va qo'shiqlar nazarda tutiladi.

Musiqa merosining har ikki qatlami ham bir-biriga doimo bog'liq holda rivojlanib kelgan. Folklor, og'zaki professional musiqa uchun ilhom manbai, hayotbaxsh kuch bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, o'z navbatida maqom yo'llari asosida yuzlab xalq kuy va qo'shiqlari yaratilgan. Folklor va og'zaki an'anadagi professional musiqani bog'lovchi eng muhim omillardan biri – ularning og'zaki an'anaga mansubligidir.

Folklor namunalari ommaviy tarzda rivojlangan bo'lib, kuy shakllarining soddaligi bilan ajralib tursa, og'zaki an'anadagi professional musiqani, asosan, shu sohaning namoyandalari tarqatadi. Musiqa asarlarini bastakor yaratib, iste'dodli xonanda va sozandalar ularni hayotga tadbiq etadilar. Musiqa namunalari esa o'zining murakkab, barkamol va puxtaligi bilan ajralib turadi. Bu borada yetakchi janr hisoblangan maqomlar – monodik musiqa sharoitida, musiqa tafakkurining eng yuksak ko'rinishlaridan biridir.

O'zbek musiqa san'ati va madaniyatining rivojlanishi ilm-fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Ularning ilmiy-nazariy negizlari uzoq o'tmishdanoq puxta ishlanib kelingan. Og'zaki professional musiqaning nazariy asoslari Forobiy,



Ibn Sino, Urmaviy kabi buyuk musiqashunoslarning risolalarida o'z aksini topgan. Sharq musiqa ilmining ajoyib yutuqlari professional musiqaning rivojlanishida muhim tayanch bo'lib xizmat qiladi. Demak, og'zaki an'anadagi professional musiqaning mafkuriy (ratsionalistik) tomoni ham keng taraqqiy topgan.

Zamonaviy musiqashunoslik fani ham bu borada chuqur izlanishlar olib bormoqda. Xalq musiqa san'ati va madaniyatining tub mohiyatini ochish, uni tushunish va hozirgi ijtimoiy sharoitda sodir bo'layotgan hayotiy o'zgarishlar jarayonini kuzatish hamda sotsial taraqqiyotga munosib hissa qo'shish uchun musiqashunoslar va olimlar katta ijodiy ishlar olib bormoqda<sup>2</sup>.

Men "O'zbek musiqa tarixi xalq musiqa madaniyatining ajralmas qismi" nomli bitiruv malakaviy ishimni kirish, ikki bob, yetti paragraf va xulosa va takliflardan iborat qilib tuzdim. Birinchi bobda o'zbek musiqa tarixi, o'zbek musiqa tarixining taraqqiyot yo'llari, ulug' allomalarning musiqa tarixiga qo'shgan hissalar haqida to'xtaladi. Ikkinchi bobda esa musiqa merosini saqlash va musiqa san'ati tarixiga e'tibor, bolalar folklori xalq folklorining tarkibiy qismi ekanligi haqida fikr-mulohazalar bildiriladi.

O'zbek musiqa tarixi xalq musiqa madaniyatining ajralmas qismi ekanligini o'rganish shu kunning dolzarb masalalaridandir.

Shundan kelib chiqib, bitiruv - malakaviy ish mavzusini: «O'zbek musiqasini shakllanish davrlari» deb tanlandik.

**Tadqiqot ob'ekti:** O'zbek musiqa tarixi va unda xalq musiqa merosiga munosabat

**Tadqiqot predmeti:** O'zbek musiqa tarixi va unda xalq musiqa merosiini o'rganish

**Tadqiqot maqsadi** Musiqa xazinalari xalqning bebaho boyligini o'rganish

---

<sup>2</sup> Suxomlinskiy V. Tarbiya haqida. Toshkent, 1980

**Tadqiqot vazifalari:**

1. *O'zbek musiqa tarixi va unda xalq musiqa san'atining rivojini o'rganish*
2. *O'zbek musiqa tarixining taraqqiyot yo'llari ni o'rganish*
3. *Buyuk allomalarimizning musiqa san'ati tarixiga munosabatlar ini o'rganish*
4. *Musiqa merosini saqlash va avlodlarga yetkazish*
5. *O'zbekistonda musiqa san'ati tarixiga e'tibor*
6. *Bolalarni xalq musiqasiga bo'lgan munosabatini tarbiyalash.*
7. *Bolalar musiqa folklori xalq folklorining tarkibiy qismini o'rganish*

**Tadqiqot asosiy masalalari va farazlari:** Muammoni nazariy o'rganish tadqiqot farazini belgilashga imkon berdi. Musiqa maktablari va san'at kollejlarida O'zbek musiqasini shakllanish davrlarini yanada chuqurroq o'rgatilsa, yosh avlod o'zbek musiqasi tarixini o'rganish orqali musiqiy ta'lim samaradorligiga erishish mumkin.

**Tadqiqotning metodologik asoslarini:** Bu muammoning nazariy va amaliy

jihatlari ma'lum darajada qator olimlar Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Muhammad al-Forobiy, Firdavsiy, **Barbad**, **Faxriddin Roziy**, Safiuddin Abdulmo'min al-Urmaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqalar tomonidan ishlab chiqarilgan.

Ish jarayonida biz, shuningdek, Oliy kengash, Vazirlar Mahkamasi va ta'lim vazirligi tomonidan qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» va boshqa boshqaruv hujjatlaridan foydalandik.

**Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi:**

1. Analiz va sintez



## 2. Maxsus adabiyotlar va manbalarni o'rganish

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati:** Ushbu malakaviy bitiruv ishda talabalar mustaqil fikrlab interaktiv musiqa dars jarayonidagi muammoning muqobil variantlarini tuzishlari mumkin va intellektual darajasiga ko'tarish masalalarini hal qilishga yordam berish mumkin .

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

- 1.O'zbek musiqasining shakllanishini o'rganish
- 2.XI - XIX asrlar musiqa madaniyatini o'rganish
- 3.O'zbek musiqasini shakllanish davrlarini o'rganish
- 4.O'rta Osiyo qadamiy musiqa madaniyatini o'rganish
5. Ilk o'rta asrlar san'atini o'rganish
6. XI - XV asrlar musiqa madaniyatini o'rganish
- 7.Nazariy tadqiqot natijalari musiqa ta'limi uchun yangi turdagi didaktik materiallar ishlab chiqishga imkon beradi. Shuningdek, natijalardan oliy va o'rta maxsus ta'lim jarayonida hamda, musiqa o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

### **Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi:**

Kirish, 2 bob, xulosadan iborat. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi. Ish 68 bet 13883 so'z (asosiy matn –68 bet, 13883 so'z, va ilovalar)dan tashkil topgan.

**Kirish qismida** tadqiqot qilinayotgan mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan, izlanish maqsadi, ob'yekti, predmeti, vazifa va metodlari ko'rsatilgan,

ilmiy farazi qo'yilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy qimmatini ochib berilgan.

**Birinchi bobda** «O'zbek musiqa tarixi va unda xalq musiqa merosiga munosabat» mavzuida muammoning nazariy, tarixiy asoslari tahlili natijalari yoritilgan, O'zbek musiqasining shakllanishi davrlari va undagi olimlar, o'p, tr vesiqasini rivojlantirish borasida olimlarimiz tomonidan qilingan ishlar haqida fikrlar yuritiladi. Bundan tashqari, O'rta Osiyo qadamiy musiqa madaniyati va ilk o'rta asrlar san'ati haqida ham mulohazalar yuritilgan.

**Ikkinchi bobda** «Musiqaxazinalari xalqning bebaho boyligini o'rganish» mavzuida fikrlar yoritilgan.

*Xulosada* olib borilgan tadqiqotning asosiy yakuniy fikr va umumlashmalari bayon qilingan.

## **I bob. O'zbek musiqa tarixi va unda xalq musiqa merosiga munosabat**

### ***1.1. O'zbek musiqa tarixi va unda xalq musiqa***

#### ***san'atining rivoji***

Tarixdan ma'lumki, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo'shiqlarimiz, maqom yo'llari hamisha xalqimizning kundalik xayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan.

Bugungi muborak mustaqilligimizga erishgan kunimizda, o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'laki bo'lgan, otabobolarimizdan meros bo'lib kelgan musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol



musiqachilarning iste'dodi namoyon bo'lishiga ko'maklashib, ularga rahnamolik qilgan. Navoiyning ijodi Sharq madaniyati va san'atining rivojlanishida ulkan rol o'ynagan. "Boburnoma"da uning faoliyatiga bir qancha sahifalar bag'ishlangan. Navoiyning musiqaviy-estetik qarashlari uning "Sabbai sayyor", "Majolisun nafois", "Mezon ul-avzon", "Mahbubul qulub", "Xamsa" va boshqa asarlarida aks etgan.

Darvish Alining XVII asrda paydo bo'lgan "Risolai musiqiy"si ("Musiqqa risolasi") nazariy va amaliy musiqqa bilimlari avloddan avlodga, bir bilimdonan ikkinchisiga shogirdlik yo'li bilan o'tib kelganini tasdiqlaydi.

Avtor o'z risolasida Sharqning mashxur shoir va musiqachilari biografiyasiga keng o'rin ajratgan. Masalan, avtor mashxur shoir Rudakiyning tarjimai holini keltiradi. Bunda u shoirning Rudak qishlog'idan chiqqaligini tasdiqlaydi. Rudakiy o'z davrining buyuk musiqachisi bo'lgan.

"Risolai musiqiy"da iste'dodli musiqachi, musiqaga yangi ritmik aylanmalar kiritgan mavlono Mir G'uruning ajoyib musiqachi, musiqqa, musiqaviy o'lchov va davrlar haqidagi risolaning muallifi Mavlono Najmiddin Kavkabiy Buxoriyning nomlari uchraydi. Biz risola orqali Temurxonning Hisordagi saroyi huzurida yashagan Mavlono Hasan Kavkabiy, 17 yoshidayoq shuhrat qozongan hamda Hirot shahrining mehtari (xon saroyidagi sozandalarga rahbar) bo'lib tayinlangan va bu lavozimni 30 yil davomida egallab turgan, keyinchalik Buxoro saroyidagi sozandalarga rahbarlik qilgan, musiqqa nazariyasining bilimdoni Said Ahmad bin Mehayri Miroqiylarning ijodi bilan tanishamiz.

Bu asar katta ma'rifiy ahamiyatga hamda Sharq musiqasi tarixi uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Darvish Alining "Risolai musiqiy"si ayrim tarixiy hodisalar haqida noaniq ma'lumotlariga, xronologik jihatdan xatolariga qaramay, faqat musiqqa nazariyasi asoslari bayon etilishi bilangina emas, balki turli davrlarda yashagan bir qator musiqachilar faoliyati haqida ma'lumotlar berishi bilan ham qimmatlidir. Risola bizni o'sha paytdagi O'rta Osiyo musiqqa madaniyati bilan ko'p jihatdan



tanishtiradi hamda uning taraqqiyotidagi asosiy tendensiyalar to'g'risida tasavvur beradi. Xalqimiz milliy musiqa madaniyatimizning ajoyib yodgorligini ehtiyot qilib saqlab keladi.

Jomiyning risolasi nazariy xarakterga ega. Muallif o'z davridagi musiqa san'atining katta psixologik ahamiyatini, uning tinglovchilarda qayg'u yoki quvonch, tushkunlik yoki umid singari turli tuman kayfiyatlar hosil qila olish qobiliyatini tushuntiradi. "Shunday bo'ladiki," - deb yozadi Jomiy "Risolai musiqi" asarida, - dilning qayg'u yoki quvonch, ma'yuslik yoki umid, tushkunlik yoki ko'tarinkilik kabi eng maxfiy holatlaridan biri tovushni o'z rangiga o'ragan holda unga ta'sir etadi. Shu tufayli tinglovchi bu mahfiy holatdan ogoh bo'ladi va undan alohida lazzat oladi."

Jomiy o'z davrining professional musiqachilari orasida tarqalgan hamda umumiy ta'lim sanalgan 11 ta jo'r ritm yoki ritmik doiralarni sanaydi. U bayon etgan ritmlar soni 19 taga yetadi.

Risolaning xotima qismida muallif ohang (lad) larning tinglovchilarga ta'siri haqida so'z yuritib, shu jihatiga ko'ra ularni 4 kategoriyaga bo'ladi.

- a) shijoat va jasurlik uyg'otuvchi ohanglar;
- b) xursandchilik va quvonch uyg'otuvchi ohanglar;
- v) qayg'u va mung uyg'otuvchi ohanglar;
- g) g'am va ma'yuslik aralashgan shodlik va zavq uyg'otuvchi ohanglar;

Ohanglarni ularning hissiy ta'sir etishiga ko'ra tasnif etar ekan, Jomiy 12 maqom, 6 ovoz hamda 24 sho'badan tashkil topgan umumiy 42 ohangdan 38 tasini qayd etadi.

Kaykovusning XI asrda G'azna shahrida yashagan Sulton Mahmud saroyidagi musiqachilarning xulq atvori haqidagi "Qobusnoma" risolasi ham juda qiziqarlidir. Kitobda, jumladan, bunday deyiladi: "Hamma vaqt og'ir yo'l (maqom)larni chalaverma va hamma vaqt yengil yo'larni ham chalaverma, chunki

yo'lni bir xilda chalmaslik kerak, negaki, odamlarning hammasi bir xilda emas, tabiatlari ham bir-biriga muvofiq emas, chunki xalq xilma-xildir<sup>4</sup>.

Shuning uchun musiqa ilmining ustodlari musiqa asboblariga shunday tartib berganlarki, avval podshohlar majlisi uchun xisravona dostonlar tuzganlar, undan keyin vaznsiz bir og'ir yo'l tuzdilar, uni ikki musiqa bilan aytsa bo'ladi, bunga og'ir yo'l deb ot qo'ydilar. Bu yo'l keksalarning va o'qigan odamlarning tabiatiga mos keladi. Bu yo'lni shunday qavm uchun yaratdilar. So'ngra (ustodlar) ko'rdilarkim, xalqning hammasi qari va jiddiy kishilar emas. Shuning uchun yigitlarga moslab bir yo'l ishlab chiqdilar. So'ngra yengilroq vaznli she'rlar uchun yengil yo'llar tuzdilar, bularga "xafif" deb nom qo'ydilar, og'ir yo'ldan so'ng bu xafif yo'lni chaldilar, bundan qarilar ham, yigitlar ham bahramand bo'lsinlar deb o'yladilar. So'ngra yosh bolalar va yoqimli tabiatli odamlar bebahra qoldilar. Bu qavm uchun taronani ishlab chiqdilar, toki bu qavm ham bahra olsinlar, rohat qilsinlar, chunki, hamma vaznlarning orasida taronadan yoqimli vazn yo'qdir."

"Qobusnoma" matni o'rta osiyolik musiqachi olimlar orasida musiqaga tinglovchiga etika jihatidan ta'sir etuvchi vosita sifatida qarashning keng tarqalganini, keyinroq borib musiqadan shifo berish vositasi tarzida foydalanilganini tasdiqlaydi.

Musiqa faqat hokimlarning saroyidangina emas, balki shahar va qishloq axli turmushidan ham katta o'rin olgan. U milliy musiqa asboblari ijrosida choyxona, xalq sayillari, ommaviy bayramlar, oilaviy bayramlar (to'ylar)da, qo'g'irchoq teatri, dorbozlar, qiziqchilar tomosha ko'rsatgan paytlarda maydonlarda, xalq udumi va rasm-rusumlari bajarilganda yangragan.

Bu haqda XVIII asrning oxiri XIX asr boshlarida yashagan shoir Nizoriy "Dasturnoma" dostonida bunday deb yozadi: "Erkin yigitlar, do'stlar, tengdoshlar, san'atga boy, xush xulqi va yaxshi hayot tarziga ega sha'n-shavkatli o'rtoqlar. Zakiy, ochiq dil va xush yuzli, nozik qochirma va hazilni tezda ilg'ab oluvchilar.

---

<sup>4</sup> O'zbek muzikasi tarixi. Toshkent, "O'qituvchi", 1981 y



Arfa, doira, ud va nay sadolari ostida kecha-yu kunduz qo‘llarda may to‘la kosa bilan zarbulmasal, nazm hamda farom ash‘orlar bilan, go‘zal rivoyatda va yoqimli hikoyalar, yaxshi ashula va dilni qitiqlovchi musiqa bilan, umuman, ko‘ngil och va ko‘ngil ochish maskanini yoqimli qil.”

Afsuski, o‘sha uzoq vaqtlarda qo‘llanilgan o‘qitish tizimi qayd etilgan yozma manbalar saqlanib qolgan emas. Faqat badiiy obidalar, zamondoshlar xotiralarida, madaniyat tarixiga oid umumiy asarlarda aks etgan bilvosita materiallar, ma‘lumotlar mavjud.

O‘zbek xalqi yaratgan musiqiy merosning ildizlari juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Ajdodlarimizning maftunkor tasviriy san‘ati tufayli bizgacha yetib kelgan yodgorliklar o‘zbek cholg‘u musiqasi qadim zamonlardan boshlanganini ko‘rsatadi. 1932-yil oktyabr oyida rus kemasi bortiga o‘lkaiz o‘tmishining bebaho boyligi – rang-barang suratli tosh plita chiqarildi. Tabiat manzarasi ifodalangan zangori fonda uch musiqachi ayol tasviri chizilgan: ulardan biri arfa, ikkinchisi lyutra, uchinchisi esa barabanga monand cholg‘u asbobi ushlagan. Termizdan 13 km yuqorida joylashgan sobiq shahar xarobalaridan qazib olingan boshqa musiqachilar tasviri tushirilgan topilmalar Ayritosh nomi bilan fanda mashxur bo‘lgan nodir yodgorliklar sanaladi. Bu topilmalar hozirgacha noma‘lum desa bo‘ladigan qadimgi musiqa madaniyatining allaqachon unutilib ketgan so‘qmog‘idan yorqin izdir. 1946-yilda Xorazm vohasining qoq yuragida – Sulton Uvays tog‘ining janubiy tizmalari boshlanadigan tekislikdagi qadimiy Tuproqqal‘adan yana bitta arfa chaluvchi ayol tasviri topildi. Musiqashunos-arxeolog R. Sadokovning fikricha, bu topilmalar III-IV asrlarga mansub ekan. Bu tarixiy manbalar O‘rta Osiyoda musiqa san‘ati yuksak darajada rivojlanganini ko‘rsatadi. Eramizning dastlabki ming yilligidayoq o‘zbek musiqasi va qo‘shiqlari mashhur bo‘lgan ko‘rinadi. Chunki, XI asrning tarixchisi va tilshunosi Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida juda ko‘p cholg‘u asboblari nomini tilga oladi. Ayniqsa ud, qo‘biz keng tarqalganini alohida ta‘kidlaydi. Olim bu davrda qo‘shiq hamda maqom ijro etish ancha taraqqiy etganligini tasdiqlab, quyidagilarni yozadi:

“koch – kuy, maqom, ashulada maxsus qoidaga muvofiq ovozni past-baland qilish”. Musiqa zamonlardanoq keng tarqalibgina qolmasdan, balki ancha rivolangan edi. Mashshoqlar cholg‘u asboblari alohida va ansambl bo‘lib dilrabo kuylarni chalishgan. O‘rta asrlarda va undan keyin musiqaga oid juda ko‘p ilmiy asarlar yozilganligi ma‘lum. Shulardan ayrimlari, masalan, yirik matematik Abu Abdulla Muhammad bin Muso Xorazmiyning “Musiqa bo‘yicha traktat” asari bizgacha yetib kelmagan yoki haligacha topilmadi.

## ***1.2.O‘zbek musiqa tarixining tarixiy taraqqiyot yo‘llari***

Qadimshunoslarning kashfiyotlari va boshqa tarixiy manbaalarning dalolat berishicha, qadimiy Xorazm, Baqtriya, Sug‘d ellarida eramizdan bir necha asr oldin, nihoyatda boy va rang-barang musiqa san‘ati mavjud bo‘lgan. Ayritom, Tuproqal‘a, Afrosiyob kabi ko‘hna shaharlardan topilgan tasviriy san‘at obidalari, musiqa hayotining turli tomonlariga keng joriy qilinganligidan va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etganligidan darak beradi. Mohir ijrochilarning qo‘llaridagi chang (arfa), udsimon, naysimon cholg‘u asboblari esa uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan mukammal sozlardir. Yuksak darajada taraqqiy topgan musiqa amaliyotiga munosib did va chuqur ilmiy tafakkur, ya‘ni musiqa ilmi ham yuzaga kelgan. Musiqaning nazariy asoslari, shuningdek, har bir davrning o‘ziga xos falsafiy va estetik qarashlariga bog‘liq simbolikasi ham puxta ishlangan<sup>5</sup>.

Qadimgi dunyoda, arab istilosidan oldingi davrlarda yozilgan, bevosita musiqaga oid risolalar bizgacha yetib kelmagan bo‘lsa ham, so‘nggi vaqtlarda yaratilgan kitoblarda o‘tmish musiqa tafakkuri haqida bir muncha ma‘lumotlar berilgan. Forobiyning “Katta musiqa kitobi”, Xorazmiyning “Imlar kaliti” nomli

---

<sup>5</sup> O‘zbek xalq musiqa ijodi. I qism, Toshkent, 1994 y



qomusi, Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari, Firdavsiyning “Isohnoma”, Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonlari va boshqa manbalarda qadimgi zamon musiqasiga oid ma’lumotlar keltirilib, Barbad, Sarkash, Ozodvor, Nakisaga o’xshagan zabardast cholg’uchi, bastakor va musiqashunoslarning ijodi ta’riflanadi. Ular ijro etgan musiqa asarlarining nomlari, mazmuni hamda ichki tuzilishiga oid tushuncha va iboralar, shuningdek, ijrochilik an’analari tilga olinadi.

Og’zaki an’anadagi professional musiqaning qadimiy namunalari “Navo”, “Parða”, “doston”, “roh”, “lahn”, “ka’l”, “tarona”, “tasnif” va boshqa nomlar bilan yuritilgan.

Musiqa yo’llari turli toifa va turkumlarga mujassamlashtirilgan. O’rta Osiyo va Eron xalqlarining arab istilosidan oldingi professional musiqasida mashhur bo’lganlardan biri Xusravoniyalar (shohona, ya’ni eng mukammal musiqa turi) turkumidir. Bu turkumga “Ganji arus” (“Kelinchak ganji”), “Ganji gov” (“Sigir ganji”), “Ganji Faridun” (“Faridun ganji”), “Kini Siyovush” (“Siyovush uchun qasos”) va boshqa yo’llar kirgan. Har bir xusravoniy ikki qismdan va o’z navbatida kichik bo’limlardan tuzilganligi, hamda bu kuylar ovoz va cholg’ularda ijro etilganligi qayd qilinadi.

Qadimiy musiqaning yana bir mashhur turlaridan biri lahnlar turkumidir. Bu kuylarning nomlari va tartibi manbaalarda turlicha keltiriladi. Masalan, Barbad nomi bilan bog’liq 30 lahn quyidagi nomlar bilan ataladi:

- |                        |                   |
|------------------------|-------------------|
| 1. Ganji bod ovard     | 10. Mushkidona    |
| 2. Ganji gov           | 11. Oroyish       |
| 3. Ganji soxta         | 12. Nimro’z       |
| 4. Shodirvoni marvarid | 13. Sabr dar sabz |
| 5. Taxti Tokidiy       | 14. Kafli rumiy   |
| 6. Nokusiy             | 15. Sarvaston     |
| 7. Ovrangiy            | 16. Sarv sahiy    |
| 8. Qakka kovus         | 17. Nushin boda   |
| 9. Mohi bar kuhon      | 18. Ramish xon    |

- |                  |                        |
|------------------|------------------------|
| 19. Sozi Navro‘z | 25. Faraxro‘z          |
| 20. Mashkuya     | 26. G‘uncha kabixdoriy |
| 21. Mehrgoniy    | 27. Naxchirgon         |
| 22. Marvinak     | 28. Kini Siyovush      |
| 23. Rohi shabdiz | 29. Kini Eraj          |
| 24. Shabi farax  | 30. Bog‘i Shirin       |

Bundan tashqari, Barbod tuzgan 7 xusravoniy, 30 lahn, 360 parda (pardalar ba‘zan nag‘ma deb ham yuritiladi) tizimi ko‘plab tilga olindi. Bu tuzilmalar asosida O‘rta Osiyo va Eron xalqlarining qadimiy kosmologik (koinot to‘g‘risidagi fan) qarashlarining ta‘siri yaqqol sezilib turadi. Bu turkumlar oy (qamar) yili kalendarining asosiga qarata qiyos qilingan. 1 xusravoniy – haftaning yetti kuni, 30 lahn – oyning 30 kuni va 360 doston esa yilning 360 kuniga nisbatan tuzilgan. O‘tmishda mukammal nota yozuvlari odat bo‘lmaganligi sababli bu qadimiy kuylarning sadolanishini hozirgi vaqtda aniq tasavvur etish qiyin. O‘tmishda sharq nota yozuvlari og‘zaki an‘anadagi musiqaqa mansub bo‘lganligi sababli, faqat yodda bor bo‘lgan musiqa yo‘llarini xotiraga keltirish vazifasini bajargan. Lekin, ko‘pchilik sharq xalqlarining musiqa madaniyatini rivojlanishida mazkur qadimiy yo‘llarni muhim ahamiyat kasb etganligi shubhasiz. Uning an‘analari, keyingi davrlarda yuzaga kelgan yangi musiqa tizimlariga, xususan, maqomlar tarkibiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Qadimiy yo‘llarning nomlari va umuman, boshqa xususiyatlarini, hattoki bizgacha yetib kelgan Shashmaqom tizimining misolida ham kuzatishimiz mumkin<sup>6</sup>.

IX asrdan boshlab, O‘rta Osiyo va umuman, O‘rta va Yaqin Sharqda ijtimoiy va aniq fanlarning rivojlanishi bilan bir qatorda, musiqa ilmi ham taraqqiy qila boshladi. Musiqa ilmining shakllanish va rivojlanish jarayoni buyuk donishmandlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino hamda ularning izdoshlari

---

<sup>6</sup> O‘zbek xalq musiqa ijodi. I qism, Toshkent, 1994 y



Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy va boshqa o'nlab ajoyib musiqashunoslarning nomi bilan bog'liqdir.

Sharq olimlari, qadimgi yunon musiqa ilmining yirik namoyandalari, buyuk mutafakkir va musiqashunoslar – Pifagor va uning izdoshlari Platon, Aristotel, Aristoksen, Ptolomey, Yevklid meroslaridan ilhom olib, yangi ijtimoiy-siyosiy muhit va yangi musiqaviy an'analar zaminida davom ettirdilar. Musiqa ilmini ilg'or g'oyalar bilan boyitib, ajoyib kashfiyotlar qildilar va shu bilan jahon musiqa faniga salmoqli hissa qo'shdilar.

Davr an'analariga ko'ra, musiqa risolalari arab, keyinchalik esa fors tillarida yozila boshladi. Lekin o'rta asr musiqa ilmiga tor mahalliy xususiyatlar nuqtai nazaridan qaramaslik kerak. Forobiy "Katta musiqa kitobi" Xalab (Aleppo), Ibn Sinoning "Javomi ilmi musiqiy" asari Urganch va Hamadon, Safiuddin Urmaviyning "Kitob ul advor" va "Sharafiya" risolalari Bag'dodda yozilgan bo'lsa ham, ularni faqat Shom (Suriya), Mavoraunnahr yoki Iroq musiqasiga tegishli muayyan turlari, ayrim joylarning mahalliy xususiyatlariga tegishli ma'lumotlar bo'lsa ham, ular, asosan, musiqaning tib qonunlari va nazariy asoslarini keng ilmiy tafakkur nuqtai nazaridan o'rganishga qaratilgan. Shuning uchun ham bu ilmiy meros O'rta va Yaqin Sharq xalqlari musiqa madaniyati va birinchi navbatda og'zaki an'adagi professional musiqa namunalarini ilmiy asosda o'rganishga yordam beradi.

Musiqa, o'rta asr ilmlar klassifikatsiyasiga ko'ra arifmetika, geometriya va astronomiya bilan bir qatorda matematik fanlar tarkibiga kiritilgan. Shu tufayli musiqaviy xodisalar hamda uning nazariy asoslari matematik uslublar yordamida ochib beriladi. "Musiqa – matematika ilmi bo'lib, unda kuy yaratilishini bilish maqsadida nag'malarning o'zaro moslashishi va moslanmasligi jihati hamda ana shu nag'malar orasida o'tadigan vaqt o'rganiladi" – deb yozadi Ibn Sino.

Ammo musiqa ilmini mutlaqo sof matematik abstraksiya tushinish ham o'rinli emas. Forobiy musiqa ilmini asoslashda: "Avvalo musiqa amaliyoti paydo bo'lib, keyin u haqdagi fikr vujudga keladi" – deb ta'kidlaydi.

Shuni aytish kerakki, oʻrta asr ilmidagi “musiqa” iborasi professional musiqani koʻzda tutuvchi tushuncha. Oʻrta asrlarda hozirgidek musiqani folklor va professional turlariga ajratish odati boʻlmagan. Umuman, “folklor” tushunchasi ilmga ancha kech joriy qilingan. Musiqa folklorshunosligining fan sifatida shakllanishi, asosan, bizning asrimizga mansubdir.

Oʻrta asr musiqashunosligi gʻoyat serqirra ilm boʻlib, unda nazariy va estetik masalalar asosiy va yetakchi oʻrinni egallaydi. Nazariya bilan estetikaning oʻzi ham bir-biridan ajralgan ravishda emas, balki yagona “ilmi musiqiy”ning turli tomonlari sifatida gʻavdalanadi. Nazariy jihatdan musiqaning tarkibiy qismlari va ichki tuzilish qonunlari oʻrganilsa, estetik tarafdin esa uning mafkuraviy va gʻoyaviy asoslarini ochib berishda qoʻllaniladigan tushunchalar ustida fikr yuritiladi<sup>7</sup>.

Musiqa ilmining klassik davri hisoblangan IX-XII asrlarda, xususan, Forobiy ijodida musiqa nazariyasi oʻz navbatida besh boʻlimga ajatilgan.

Birinchi boʻlimda ushbu ilmning tarkibiy boʻlaklarini bilish uchun lozim boʻlgan asos va negizlar hamda ularni qoʻllash, tarkibiy boʻlaklarning turli miqdorlari, musiqani tadbiiq etish uslublari va tadqiqotchi qanday boʻlishligi haqida soʻz yuritiladi.

Ikkinchi boʻlimda bu sanʼatning asoslari haqida gapiriladi. Nagʻmalarning hosil boʻlishi, nagʻma turlarining sifat va miqdori haqida, bir nagʻmaning ikkinchisiga munosabatini tushuntirish hamda bu fikrlarni isbotlashga tegishli maʼlumotlar keltiriladi. Shuningdek, nagʻmalarning joylashish turlari va tarkibiga koʻra moslashuvi hamda oʻu asosda kuy yaratish uchun mumkin boʻlgan nagʻmalarni tashnlash tushuntiriladi.

Uchinchi boʻlimda asos, negiz va isbotlashga tegishli tushunchalarni ishlatish (nagʻmalarni hosil qilish uchun) lozim boʻlgan turli sunʼiy omillar, zikr etilgan omillar yordamida barcha nagʻmalarni paydo qilish, ularni oldindan

---

<sup>7</sup> Oʻzbek xalq musiqa ijodi. I qism, Toshkent, 1994 y



belgilangan tartibda joylashtirish, (ilmu musiqa) asoslarini tushuntirish ustida soʻz boradi.

Toʻrtinchi boʻlimda nagʻmalarning vazn asosini tashkil qiluvchi ritm turlari ustida gapiriladi.

Beshinchi boʻlimda, umuman, kuy tuzilishi, shuningdek, muayyan tartib va nizomga koʻra vaznli (sheʻriy) nutq uchun tuziladigan mukammal kuy yaratish, kuyning turli maqsadlariga koʻra, sheʻriy nutq qoʻllash uslublari, ushbu nutq tufayli hissiyotga yanada izchil va taʻsirchan, maqsadga muvofiq kuylar taʻriflanadi.

Keyingi asrlarda, xususan, Safiuddin Urmaviy (XIII asr) ijodidan boshlab, musiqa nazariyasi – monodik (bir ovozli) musiqaning, asosan, ikki bosh mezoni – parda (umuman, tovushlarning baland-pastlik jihati, oʻrni) va vazn (tovushlarning vaqt munosabati) nuqtai nazaridan oʻrganishga qaratilgan. Bular nisbiy mustaqil boʻlgan ikki ilmga ajratiladi – “ilmu taʻlif” va “ilmu iqo”.

Ilmu taʻlif kuyning dastlabki zarrachasi – tovushdan tortib, yirik musiqa tuzilmalari haqida tushunchalar beradi. Kuy boʻlaklari: savt (tovush), nagʻma (parda, ton), buʻd (interval), jins (dastlabki kuy tuzilmalarining parda asoslari, toʻrt-besh pogʻonali tovush qatorlar), jaʻm (jinslarning birikmasidan hosil boʻladigan bir oktava hajmidagi tovush tuzilmasi), intiqolot (koʻchish, modulyatsiya) kategoriyalari ustida fikr yuritadi.

Ilmu iqoʻ esa musiqa vaznining eng kichik birligi naqr (asl maʼnosi chertish, zarb vaznlarni oʻlchash uchun shartli shartli ravishda olingan birlik) va ulardan hosil boʻladigan iqoʻ (ritm), davr (ritmik tuzilma), usul (ritmik davrning muayyan turi) kabi tushunchalarni oʻrganishga qaratilgan.

Sharq musiqa estetikasida, kuyning paydo boʻlishi, uning mohiyatini belgilash eng muhokama qilinadigan maslalardan hisoblanadi. Musiqaning paydo boʻlishi masalasi afsonaviy, ilohiy yoki hayotiy tajribaga asosan holda turlicha talqin qilinadi. Ayrimlar musiqaning paydo boʻlishini afsonalarga bogʻlab, qaqnus qush yoki tosh oʻyilgan teshiklardan chiqqan sadolar eng mutanosib musiqa navlari

bo‘lib, inson yaratgan har qanday kuydan ustun turarmish. Forobiy va Ibn Sinodek ilg‘or olimlar esa, bunday fikrlarni tanqid qilib, musiqani inson faoliyati bilan bog‘laydilar. Masalan, Forobiy, eshitish tajribasidan xoli bo‘lgan hodisalar musiqaga aloqasi yo‘qligini qayd etib, faqat quloq bilan eshitib idroklanadigan ohanglarnigina musiqa deb biladi. Ibn Sino esa musiqani aloqa vositasi deb tushungan holda, fikr va tuyg‘ularni izhor etishda, so‘z nutqini birlamchi, mutanosib kuylashni esa undan mukammalroq pog‘ona, deb biladi. “Agar tovush nazm va mutanosiblik bilan bezalgan bo‘lsa, u yanada kuchliroq ta’sir qiladi” – deb yozadi Ibn Sino “Javomi ilmu musiqa” nomli 1965 yil Qohira shahrida chop etilgan kitobida.

### ***1.3. Buyuk allomalarimizning musiqa san’ati tarixiga munosabatlari***

Abu Nasr Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon Forobiy o‘rta asr sharq musiqa madaniyatining eng yirik namoyandasi. Fanda, Forobiyning hayoti va faoliyatiga doir aniq ma’lumotlar, afsuski, juda oz. U 873 yilda Sirdaryoning Forob deb nomlanuvchi joyida tug‘ilgan.

Manbaalarda ko‘rsatilishicha, u zabardast bastakor hamda ud, tanbur, nay, g‘ijjak, chang va qonun asboblarning mohir ijrochisi bo‘lgan. Forobiy o‘tkir didi va ajoyib musiqaviy qobiliyati tufayli O‘rta va Yaqin Sharqda yashovchi turli halqlarning musiqa merosiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu xalqlarning musiqa merosini ilmiy va amaliy tomonlarini chuqur o‘zlashtirganligi Forobiyning asarlaridan yaqqol ma’lum bo‘ladi.

Forobiy musiqaga oid ko‘p asarlar yozgan. Manbalarda uning “Ilmlar klassifikatsiyasi” (“Inso al-ulum”), “Katta musiqa kitobi” (“Kitob al-musiqa” al-Kabir), “Musiqaga kirish” (“Madxal fi-l-musiqa”), “Ritmlar klassifikatsiyasi kitobi” (“Kitob ixsa al-iqo”) va boshqa ko‘plab asarlari tilga olinadi. Bu asarlarning ayrimlari qo‘l yozma sifatida dunyoning turli kutubxonalarida



saqlanadi. Zamonaviy ilmga Forobiyning asosan, ikkita musiqa asari keng joriy qilingan. Ular “Ilmlar klassifikatsiyasi”ning musiqaga bag‘ishlangan bo‘limi va “Katta musiqa kitobi”dir<sup>8</sup>.

Forobiyning “Musiqa haqida katta kitob” asari cholg‘u madaniyatimiz tarixining o‘qilmagan sahifalarini birmuncha oydinlashtirish imkonini beradi. Kishi ruhiga, qalbiga, xis-tuyg‘ulariga kuchli ta’sir qiladigan musiqa san’ati bilan shug‘ullangan hamda uning nazariy va amaliy-tarbiyaviy ahamiyati to‘g‘risida asar yozish o‘sha davrda buyuk jasorat edi. “Musiqa haqida katta kitob”da musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini yoritishdan tashqari, O‘rta asr Sharq musiqa san’atining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan rubob, nay, tanbur, ud, nog‘ora va boshqa cholg‘u asboblarining tuzilishi, ijro tamoyillari haqida keng ma’lumot beriladi. Al-Forobiy inson tovushiga taqlid qila oladigan cholg‘u asboblarini muhim va zarur deb hisoblaydi. “Kishi ovozigga yaqin tovush chiqazadigan asboblar rabab (g‘ijjak) va puflama asboblaridir; ular ovozga juda yaxshi taqlid qiladilar. Rabab va surnay ovozgv juda yaxshi taqlid qila oladi”, - deb yozadi olim. Al-Forobiy cholg‘u asboblarining asosan ikki vazifasini ko‘rsatib o‘tgan: qo‘shiqqa jo‘r bo‘lish va yakka holda ijro etish. Xalq musiqasidagi bu an’ana hozirgacha saqlangan. O‘rta Osiyo musiqasining rivojlanish manbalarga va xarakterli belgilari yaxshi izohlanadi. “Cholg‘u musiqasi ashulaga jo‘r bo‘ladi yoki ovozga taqlid qiladi, uni boyitadi hamda ashulaning boshlang‘ich musiqasini va uning oralaridagi cholg‘u qismini hosil qiladi. Bu esa ashulachiga dam beradi. Ayni vaqtda ular ashulachining ovozi yetmaydigan joylarni bo‘rttirib, vokal musiqani boyitadi,” – deyiladi asarda. Forobiyning inson tarbiyasida musiqaning ahamiyati borasidagi fikrlari ham maqtovga loyiq. Buyuk Sharq mutafakkirining yozishicha, inson jamiyatda yashab kamol topar ekan, uning baxt-saodati, xulq-atvori ma’naviy qiyofasi shu jamiyat quchog‘ida shakllanadi. Shuning uchun oiladagi ijobiy muhit ijtimoiy hayot oqimidagi birhyo‘nalish deb qaralishi lozim. Bu yo‘nalish jamiyatda

---

<sup>8</sup> O‘zbek muzikasi tarixi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1981 y.

yangi kishi tarbiyalashning fundamental asosidir. Musiqiy madaniyatdan bahramand bo'lish inson tarbiyasining ajralmas qismidir. Chunki musiqaviy tarbiya odamni qalban pok va go'zal, sog'lom fikrli, badiiy didli hamda fikrlash qobiliyati o'tkir qilib o'stiradi, shu bilan birga nafosat va go'zallik olamiga chorlaydi. Ulkan tarbiyaviy imkoniyatga ega bo'lgan o'zbek xalq musiqa merosining zarchashmalari tarixan olis zamonlardan boshlanib, ijtimoiy hayot bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Ilk musiqa namunalari esa inson ongining rivojlanishi natijasida tabiat go'zalliklaridan ilhomlangan qadimgi odam tomonidan mehnat jarayonida vujudga kelgan.

Musiqqa ilmi masalalarining atroflicha va chuqur yoritilishi jihatidan o'z davrida tengsiz bo'lgan "Katta musiqa kitobi" jahon fanining shoh asarlaridandir. Forobiy bu asarida oldinlari boshqa fanlarning tarkibiy qismi bo'lgan musiqani, mustaqil ilm darajasiga ko'targan.

"Katta musiqa kitobi"ning dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadigan bir necha nusxalari mavjud. Forobiy tavalludining 1100 yilligi munosabati bilan arab olimlari Zakariyo Yusuf hamda Mahmud Hafniy tomonidan mavjud qo'lyozmalar asosida kitobning mukammal matni tayyorlanib, nashr qilindi.

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino (980 - 1037)ning serqirra ilmiy merosida musiqa muhim va salmoqli o'rin tutadi. Ibn Sino o'zidan oldin o'tgan yunon faylasuflari Aristotel, Ptolomey, Evklid, shuningdek, Sharq olimlari Xorazmiy, Kindiy va Forobiy asarlarini ijobiy o'zlashtirib, musiqa ilmida mustaqil ta'limot yaratdi. Qo'yilgan masalalarning kengligi, yoritilishining chuqurligi nuqtai nazaridan o'z zamonida beqiyos bo'lgan Ibn Sino ta'limotining ahamiyati davr doirasi bilan cheklanmasdan, balki u Sharq va G'arb musiqasining keyingi rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ibn Sinoning navqiron davri ona shahri Buxoroda o'tgan. Bu davrda Buxoro rivojlangan feodal shaharning yorqin namunasi edi. Somoniylar poytaxti madaniy hayotining diqqatga loyiq tomonlaridan biri shu eidiki, unda xalifalik hukmronligidan chiqish va mahalliy an'analarga qiziqish kuchaygan edi. Ana shu



umumiy yo‘nalish ostida O‘rta Osiyo va Eron xalqlarida keng tarqalgan, yuqorida zikr etilgan Barbod zamoniga mansub qadimiy professional musiqa qayta tiklanishini kuzatish mumkin. Ushbu qadimiy yo‘llarning ko‘pchiligi Ibn Sino yashagan davrda, yangi estetik talablarga bo‘ysindirilgan holda qayta o‘zlashtirilgan. Rost, Zangula, Zirafkand, Rahoviy, Navro‘z va shunga o‘xshagan qadimiy yo‘llar O‘rta va Yaqin Sharq professional musiqasining yangi tuzumi – maqomlar tarkibiga singa boshlagan.

Musiqa ilmiga oid masalalar Ibn Sinoning ko‘plab asarlarida o‘z ifodasini topadi. Afsuski, ularning hammasi ham bizgacha yetib kelmagan. Masalan, Ibn Usayba tilga olgan “Madhal san’ati al-musiqa” (“Musiqa san’atiga kirish”), Ibn Sinoning o‘zi “Shifo” kitobida qayd qilgan “Kitob al-lavohiq” (“Qo‘shimchalar kitobi”) kabi musiqaga oid asarlar hanuzgacha fanga ma’lum emas. Ibn Sinoning musiqa merosi asosiy yirik qomusiy asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. “Shifo” kitobining “Javomi ilm-al-musiqa” (“Musiqa ilmi yig‘indisi”) deb nomlanuvchi bo‘lagi; “Najot” kitobining “Muxtasar ilm-al musiqa” (“Musiqa ilmi haqida qisqacha ma’lumot”); “Donishnoma”ning musiqaga oid qismlari. Bundan tashqari, Ibn Sinoning boshqa fanlarga bag‘ishlangan “Tib qonunlari” va “Ishq risolasi” kitoblarida ham musiqaga tegishli ma’lumotlar berilgan. Ibn Sinoning musiqaga oid qarashlari “Javomi ilm-al-musiqa”da to‘laroq aks ettirilgan. “Muxtasar ilm-al musiqa” va “Donishnoma”ning musiqa qismlari esa o‘sha asar asosida tuzilgandir<sup>9</sup>.

Ibn Sino musiqa borasidagi qarashlarining asosiy xususiyati va Forobiy ta’limotidan farqli tomonlaridan biri shundaki, Ibn Sino o‘z musiqa nazariyasini ko‘proq tovushning fizik xususiyatlariga qarata tuzishga intiladi. Forobiy esa nazariyani ko‘proq tajriba va idroklash qonuniyatlari bilan bog‘laydi. Bunda Ibn Sino ta’limotining kuchli va zaif tomonlari namoyon bo‘ladi. Zaif tomoni shundan iboratki, Ibn Sino musiqaning ichki tuzilishi va idroklash qonuniyatlarini absolyutlashtirmoqchi bo‘ladi. Kuchli tomoni shundaki, musiqani faqat tajribaning

---

<sup>9</sup> O‘zbek muzikasi tarixi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1981 y.

o'ziga bog'lab qo'ymasdan, uni fan va ilmiy tafakkur yordamida rivojlantirishga da'vat etadi.

Ana shuning uchun ham, Ibn Sinoning musiqaviy qarashlari fanda chuqur iz qoldirib, har doim uning diqqat markazida turgan. Shuningdek, Sharq va G'arb musiqa ilmining keyingi rivojlanish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatgan. Ibn Sino qarashlaridan sharq olamining yirik musiqashunoslari Abu Mansur ibn Zayla, Sufiuddin Urmaviy, g'arbning atoqli olimlari Vinchensio Galiley va Djuzeppo Sarlinolar ilhom olgan.

Ibn Sinoning musiqaviy ta'limotida estetika, nazariya va amaliyotga doir qator dolzarb masalalar o'z aksini topgan.

Musiqani inson faoliyatining mahsuloti, aloqa vositasi deb tushinishga asoslangan Ibn Sino estetikasi, O'rta asrlar musiqa tafakkurining eng ilg'or ko'rinishlaridan biridir.

Ibn Sinoning ilmi iqo' borasidagi qarashlari ham diqqatga sazovor. U kuyning go'zalligini va ichki xususiyatini ko'p jihatdan mutanosib vaznga bog'laydi. Shunga ko'ra, vazni musiqaning muhim omili deb biladi. Olim o'z davrida mashhur bo'lgan quyidagi sakkizta musiqaviy usulni ta'kidlab o'tadi: 1. Hazaj. 2. Hafifi hazaj 3. Saqili avval. 4. Hafifi saqili avval. 5. Ramal. 6. Hafifi ramal. 7. Saqili soniy. 8. Hafifi saqili soniy.

Ilmi iqo' munosabati bilan, Ibn Sino she'riyat masalalariga ham mufassal to'xtalib o'tgan. Bu borada Ibn Sino Aristotel an'alarining davomchisi bo'lib, musiqa va she'riyat masalalarini Sharq madaniyati zaminida davom qildirgan donishmanddir.

"Avitsenna" nomi bilan butun dunyoda mashhur bo'lgan Abu Ali ibn Sino faqatgina shifokor emas, taniqli musiqashunos ham edi. Hatto g'ijjakning yaratilishi bilan bog'liq rivoyat ham Ibn Sinoga bag'ishlangan: go'yoki bu cholg'u asbobini ixtiro qilgan va unda kuy chalgan odam ulug' hakim emish. "Kitob ash-shifo" asarida yozilishicha, musiqa kishi ruhini davolovchi, inson qalbiga kuchli ta'sir etuvchi estetik vositalardan biridir. Musiqa va kuyning paydo bo'lishini olim



shunday izohlaydi: “Tabiatning o‘zi odamlarga nutq ato qilgan. U shartli xarakterga ega bo‘lib, xushomad qilganda, o‘z tobeligini bildirganda yoki yalinganda tovush mayinlashib, natijada so‘z ta’sirli chiqadi va o‘z maqsadiga erishadi. Keyin taqlid qilish ayniqsa odamlarga katta orom bag‘ishlaydi.” Ibn Sinoning ta’lim va tarbiya haqidagi dunyoqarashi va ilg‘or g‘oyalari faqatgina tabiiy fanlarga oid asarlarida emas, balki adabiy-badiiy janrlardagi risolalarida ham o‘z aksini topgan. Uning bu asarlarida musiqa san’atining insonparvarlik, rostgo‘ylik, mehr-muhabbat, hurmat hamda do‘stlikka ta’siri masalalari o‘rtaga tashlanadi.

Ibn Zayla Ibn Sinoning shogirdi bo‘lgan. O‘rta asr manbalariga ko‘ra, Abu Mansur ibn Zayla 1044 yili naviqron yoshida vafot etgan. Lekin qisqa umri davomida fanning turli sohalarida puxta asarlar yaratib, o‘z davrining yetuk olimlaridan hisoblanganligi uchun zamondoshlari unga al-Hakim (Donishmand) deb laqab berganlar.

Musiqa ilmida Ibn Zaylaning yagona asari “To‘liq musiqa kitobi” (“Kitob al-kafiy fi al-musiqa”) ma’lum. Ibn Zayla ijodi ibn Sinoning musiqaviy qarashlarining katta ta’siri ostida shakllangan. Ibn Zayla ijodining diqqatli tomonlaridan biri shuki, u kuy pardalarining nomlanishida birinchi bo‘lib yangi uslubni qo‘llagan va shu tufayli Sharq musiqasi tarixida iz qoldirgan. Undan oldingi olimlar pardalarni belgilashda abjad tartibidagi arab alifbosidan foydalangan bo‘lsalar, Ibn Zayla birinchi bo‘lib abjad xarflarining son bildirish tartibiga qarab qo‘llagan<sup>10</sup>.

A	B	J	D	X	V	Z	X	T	Y	Y va hokazo
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11

Shunga ko‘ra, musiqa istilohida pardalarni ifodalashda yakgoh, dugoh, segoh, chorgoh, panjgoh iboralari ishlatila boshlagan. Bu tartib sonlar tizimi ilmu

---

<sup>10</sup> Matyoqubov O.. Og‘zaki an‘anadagi professional musiqa asoslariga kirish. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1983 y.

ta'lifning turli tabaqalariga nisbatan ishlatiladi va har birida bo'lak ma'no anglatadi. Avvalo, yakgoh, dugoh, segoh, chorgoh, panjgoh iboralari muayyan pardalarni bildirgan. Bu iboralardan ko'proq shu beshtasi ishlatilishining sababi – to'rt va besh pog'onalik jinslarning kuy tuzilishida ular asosiy vazifa bajarganligidandir.

Keyinchalik, bu iboralar sho'ba va maqomlarning nomi sifatida qo'llanilgan. Hozirgi kunda ham turli Sharq xalqlarining musiqasida ko'proq shu ma'nolarda yuritiladi. Arab maqomlarida siga (segoh), Ozarbayjon mug'omlari va Eron dastgohlarida Segah, Chorgah, Panjgah, Shashmaqomda Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh asosiy tushunchalar hisoblanadi.

Alisher Navoiy nozik ta'b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, dil-dildan zavqlanardi. Insonning kamolotga yetishuvida asosiy rol o'ynovchi vositalardan biri – musiqa san'atidan bahramand bo'lish deb bildi. "Musiqani idrok etmagan shoir nim shoirdir," – deydi Navoiy. Musiqa ilmi va san'ati haqida shoirning "Majolisun-nafois" asarida atroflicha yoritilgan. Asarning 118-sahifasida Pahlavon Muhammad Go'shtigir haqida bahs ketganda, uni zamonasining shirinkalom va hushsuhbatlaridan biri ekanligi ta'kidlanadi. Shundan keyin Navoiy "Musiqiy va advor ilmida davrning benaziridir" deya qo'shib qo'yadi. To'rtinchi majlisda mashhur sozanda va xofiz Muhammad Sultonshoh hamda dilrabo kuylari ila dillarni maftun qilgan mashshoq Ustod Qulmuhammad nomlari hurmat bilan qalamga olinadi. "Ustod Qulmuhammad – Shibirgonlikdir, – deb yozadi Navoiy, - kichik yoshida g'ijjak chalar edi. Qobiliyat asari ul fanda andin ko'p zohir bo'lur edi. Tarbiyatiga mashg'ul bo'lur edi. Ammo ud va g'ijjak va qubuzni asrida ancha kishi cholalmâs edi."

Navoiy kishilarni o'z san'ati bilan maftun qiluvchi zavq-shavq bag'ishlovchi hofiz va qo'shiqchilarga, umuman musiqa san'atiga munosabati "Mabubul qulub"dagi "Mutrib va mug'aniylar zikrida" aytilgan yigirma ikkinchi faslda yorqin tasvirlangan. "Qunchil quvvati xushnavozdin, ruh quti xushovozdin. Xushxon mug'annidin dard axlining o'ti tezdur, agar malohadi bo'lsa xal axliga



rustanezdur. Har mug‘anniyki, darmondaroq nag‘ma chekar anning zaxmasi zaxmlik yurakka korcharroq tegar. Otashin yuzluk mug‘anniyki xalqdin muloyim surud chiqarg‘ay, hol ahlining kuygan bag‘ridan dud chiqarg‘ay. Muloyim mutribki tab’ va faxm anga yor bo‘lg‘ay, adami ko‘ngli toshdiq bo‘lsa anga zor bo‘lg‘ay. Xususan, ham aytqoy, va ham chalg‘oy, ko‘ngil mulkiga ne qo‘zg‘olonlari solg‘ay...” (Majolisun nafois, Navoiy asarlari, 13-tom, 23-bet). Bu so‘zlar musiqa san‘atining estetik va sotsial-tarbiyaviy qimmatini beqiyos ekanligini anglatadi. Navoiy shu o‘rinda ham musiqani, ham o‘zini xor qilgan ta‘magir mug‘anniylarni afsus-nadomat bilan tanqid qiladi. Xalq ijodiyotiga muhabbat qo‘ygan Navoiy musiqaviy merosning mohiyatini anglay oldi, o‘z asarlarida bu san‘at turining qudratli tarbiyaviy-estetik rolini to‘g‘ri baholadi. U xalq she‘riyati va kuylarini o‘rganishga, ta‘lim olishga chaqirdi.

### ***1-bob bo‘yicha xulosa***

Yoshlarda go‘zalikka, nafosatga, xalq madaniyatiga hurmat hissini tarbiyalash, san‘atdan ruhiy oziq olish ehtiyojini vujudga keltirish kerak. Chunki inson qalbida doimo go‘zalikka tashnalik bo‘lgandagina barkamol shaxs sifatida shakllanadi. Har bir ijtimoiy taraqqiyotdagi ijobiy yoki salbiy voqealar xalq qo‘shiqlarida, dostonlarida, raqslarida o‘z aksini topib kelgan. Xalq musiqa merosi bitmas-tuganmas hazina bo‘lib, yoshlarni ma‘naviy kamolotga yetkazuvchi badiiy-estetik manbaa hisoblanadi. Shuning uchun ham musiqa folklori xalq donishmandligining badiiy estetik asosi bo‘lib, yoshlarni musiqaviy-estetik ruhda tarbiyalashda salmoqli o‘rin tutadi.

Glinkaning mashhur ta‘biri bilan aytganda, musiqani xalq yaratadi. Xalq musiqa ijodi – bebaho xazinadir. Undan istagancha olish va ayni mahalda uni e‘zozlab, ehtiyot qilish – musiqa madaniyati barcha arboblarning burchidir.

Xalq tinmay ijod qiladi, binobarin, u yaratgan asarlarni ham muttasil yig‘ib borish lozim. Xalq yaratgan qo‘shiqlar iftixor tuyg‘usini, Vatanga muhabbat

hissini uyg'otadi. unda xalq qalbi, xalq hayoti butun rang-barangligi bilan o'z aksini topgan. Xalq qo'shiqlarini o'z san'ati bilan tinglovchilar qalbini maftun etgan qanchadan-qancha iste'dodli ijrochilar kuylashgan. Bu kishilar bilan, ularning san'ati bilan uchrashuv muxlislarda yorqin tuyg'ular qoldirgan.

To'g'ri, "xalq qo'shiqlari "o'lib bormoqda", unga qiziqish tugab bormoqda" deguvchilar ham bor. Biroq turmush voqeligida bunga hech qanday asos yo'qligini vaqt ko'rsatmoqda. Bugungi kunda xalq qo'shiqlari estrada guruhlaridan tomonidan ham, radio, televideniye orqali ham jaranglamoqda, uni xorda, vokal ansambllarida kuylashmoqda, ular ko'plab taniqli hofizlarimiz repertuaridan joy olgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimda o'zimning quyidagi takliflarim, fikr-mulohazalarimni ham bildirmoqchman:

1. Xalq qo'shiqlarini, yumshoqroq qilib aytganda, takomiliga yetkazilmay ijro etiladigan holatlar hozir ham uchrab turadi. Bunday qo'shiqlar malakasi past, xalq ijodiy an'analari sohasida chuqur bilimga ega bo'lmagan kishilar tomonidan ishlanadi. Bunday musiqachilar qo'shiqni ishlash – unig melodik negizini saqlab qolish, uni yanada ohangdorroq, koloritliroq qilish ekanligini unitib qo'yishadi. Buning uchun esa xalq yaratgan qo'shiqlarni chuqur tushunish, uni samimiy xurmat qilish va sevish ham kerak.

2. Bizda folklorga munosabatda xato yo'ldan boradigan – ko'r-ko'rona nusha ko'chiradigan ayrim ijrochilar, ba'zan esa hatto kichikroq jamoalar ham bor. Hozir kim "sof" xalq ohangida qo'shiq aytadi? Albatta, qariyalar-da, deb o'ylashadi ular. Shu tariqa qariyalar ijro etgan qo'shiqlarni vijdonan, pishiq-puxta qilib yozib olib, bu qo'shiqni qariyalar ijro etganini, ular endi aslo yoshlikdagi kabi qo'shiq ayta olmasligini unitib qo'yib, qanday eshitishgan bo'lsa, shunday ijro etishaveradi. Bu ishda, xalq qo'shiqlarini ijro etish go'zalligiga ziyon yetkazmagan holda, ijodiy, tanlab yondoshish zarur<sup>11</sup>.

---

<sup>11</sup> O'zbek xalq musiqa ijodi. I qism, Toshkent, 1994 y.



3. Menimcha, hali hal etilmagan yana bir muammo bor. Toshkent, Samarqand va boshqa viloyat markazlarida turli-tuman musiqa janrlari vakillari o'z san'atlarini namoyish qiladigan konsert zallari mavjud. Shu bilan bir qatorda hech bo'lmasa poytaxtda yana bir konsert zali – o'zbek xalq musiqasi zali bo'lishini istardim. U milliy san'atning chinakam xazinasini bo'lib qolardi. Bu zal foyesida xalq musiqa asboblari, xalq amaliy san'ati ko'rgazmasini tashkil qilish, uning sahnasida xalq musiqasi asosida solistlar, xor, xalq cholg'u asboblari orkestrlari chiqishlari mumkin bo'lardi.

Shu yerda shuni ham aytib o'tishim zarurki, bitiruv malakaviy ishni yoritishimda Toshkent shahar markaziy kutubxonasi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat universiteti kutubxonasi materiallari va adabiyotlaridan, Namangan Davlat universiteti filologiya fakultetining folklorshunos olimlarining maslahatlaridan va ularning shaxsiy kutubxonasi manbalaridan, viloyat o'lkani o'rganish muzeyi materiallaridan va vaqtli matbuotda berilgan mavzuinga oid maqolalardan erkin, ijodiy tarzda foydalandim. Shular asosida baholi qudrat mavzuimni yoritishga harkat qildim.

Bitiruv malakaviy ishimi yoritishda shu narsaga amin bo'ldimki, insonning badiiy didi yuksak musiqa asarlarini kuylash va tinglash jarayonida shakllanar ekan. O'zbek xalq qo'shiqlari esa ana shunday yuksak musiqa asarlari sirasiga kiradi. Estetik tarbiyaning eng muhim qismlaridan biri – badiiy tarbiya insonning san'at asarlarini idrok etishdan iboratdir. Musiqa asarini tushunish va go'zal tuyg'ular hayajonini tuya olish badiiy hissiyotning quvvatiga bog'liq. Badiiy hissiyoti yuksak odamlar eng murakkab musiqa asarlarining mo'jizakor kashfiyotlarigacha ilg'ay oladilar. Chunonchi, xalqimizning "Dugoh", "Segoh", "Navo", "Suvoriy", "Uforiy", "Mo'g'ulchai navo", "Yovvoyi chorgoh", "Soqiynomai savtisarvinoz", "Ufori uzzol" singari yuksak musiqa durdonalarining mohiyatini his qilish uchun badiiy hissiyot barkamol bo'lmog'i kerak. Zamonaviy musiqa asarlarini chuqur idrok etib, professional ijrochilar san'atidan bahramand

bo'lish inson madaniyatini boyitadi. Yaxshi musiqalarni tanlab tinglashning o'zi bir san'at. Badiiy didi yuksak kishilar eng yaxshi musiqa asarlarini tanlay oladilar.

Badiiy tarbiyani g'oyaviylikdan ajratish mumkin emas. G'oya badiiylikning ichki mohiyatini anglatuvchi tushunchadir. G'oyasiz badiiylik puch yong'oqdir. Musiqaning g'oyaviy mazmuni kishilarda do'stlik, vatanparvarlik va mehr-vafo tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Aristotel ta'biri bilan aytganda "Musiqa qalbning ahloqiy-etik jihatlariga ta'sir ko'rsata olish layoqatiga qodir. Modomiki, musiqa shunday xususiyatlarga ega ekan, demak u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga kiritilmog'i lozim." Musiqa tarbiyasi jamiyatning eng murakkab va doimiy jarayonidir.

Musiqa insonning xotirasini va ritmik tuyg'usini o'stiradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi. Musiqiy qobiliyatning o'sishi musiqa asarlarini badiiy idrok etib, undan estetik zavq ola bilishga o'rgatadi, natijada shu san'atni sezuvchi va qadrllovchi kishilarni tarbiyalaydi. Badiiy barkamol va g'oyaviy yuksak musiqa asarlari jamiyat kishisining ahloq me'yorlariga mos bo'lib, musiqiy tarbiyaning muhim qismidir. Musiqa san'ati insonning go'zalligi va nafosat haqidagi tasavvurini kengaytiradi, mehnat jarayonida ilhom va bitmas-tuganmas quvonch baxsh etadi. Musiqaning ta'sirchan kuchi olijanob fazilatlarni kamol toptiradi, ma'naviy va ahloqiy go'zallik olamiga yetaklaydi. Xalq kuylari, klassik qo'shiqlarining estetik va ahloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

## **II- bob. Musiqa xazinalari xalqning bebaho boyligi**

### ***2.1. Musiqa merosini saqlash va avlodlarga yetkazish***

Hozirgi kunlarga kelib og'zaki uslub vositasida yetib kelgan musiqiy meros namunalarini amaliy o'zlashtirish hamda ilmiy tadqiq ishlari dastlabki paytlarda mutaxassis olimlar, shu jumladan, etnomusiqashunoslar oldiga bir qator vazifalarni ko'ndalang qo'ydi. Eng avvalo bor bu merosni to'plash, uni mavjud bo'lgan ovoz taratish vositalariga yozib olish hamda nota yozuvlarida nashr etish zarur edi.



Chunki bu borada o'tmishdan qolgan yozma yodgorliklar nihoyatda oz bo'lib, ularning bori ham, asosan, o'rta asrlar davri kasbiy musiqasiga taalluqlidir. Musiqiy folklorlarga doir esa to'liq bo'lmagan yozuvlar, ya'ni xalq qo'shiqlarining she'rlari bayon etilgan yozma manbaalar uchraydi, xolos. Xususan, shunday qimmatli manbalardan biri – XI asrda yashagan ulug' bobokalonimiz Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asaridir. Ushbu devonda ilmu-hikmat, pand-nasihah, mehnatga shijoat, sevgi tuyg'ulari kabi mavzularda she'riy parchalar keltiriladi. Bu she'rlar ma'lum ohanglarda kuylanganligi shubha tug'dirmaydi, zero she'riyat “ilgari ksy lash uchun yo musiqa jo'rligida aytish uchun yaratilgan”. (U. To'ychiyev, O'zbek poeziyasida aruz sistemasi, Toshkent “Fan”, 1985, 47-bet). Devondagi she'rlar ham bu fikrni bilvosita bo'lsa-da tasdiqlaydi.

O'rta Osiyoda musiqiy merosni besh chiziqli tizim (notatsiya) vositasida yozib olish ishlarining boshlanishi XIX asrnig 2-yarmiga to'g'ri keladi. Bu ishni ilk bor boshlab bergan musiqachilar – A. Eyxgorn (1844 - ?) va F. Leysek (1857 - 1935) taqdir taqozosi bilan Rossiyadan O'rta Osiyoga xarbiy kapelmeysterlik (dirijyorlik) vazifasini o'tashga kelgan edilar.

Avgust Eyxgorn asli Avstraliyalik bo'lib, 1870-83 yillari Toshkentda yashagan edi. Shu yillar ichida Toshkent, To'ytepa, Qo'qon, Chimyon, Andijon, Namangan va boshqa shahardar bo'ylab musiqiy-etnografik sayohatlar uyushtirdi va talaygina xalq qo'shiq kuylarini yozib oldi. Shu bilan birga, A. Eyxgorn O'rta Osiyo xalqlari musiqa cholg'ularini yig'ish, kolleksiya tuzish ishida ham faollik ko'rsatdi. Jumladan, u 36 cholg'udan iborat majmua to'plashga muassar bo'lib, ularning har biriga yozma ravishda ta'rif berib o'tgan. Shuningdek, A. Eyxgorn kolleksiyasi Moskva, Peterburg va Vena shaharlarida uyushtirilgan xalqaro ko'rgazmalarda namoyish etilgan.

Chexiyalik harbiy kapelmeyster va kompozitor Frantishek Vaplav Leysek umrining salmoqli qismini (1878-1935) O'zbekistonda yashab, milliy kuylarimizni to'plash borasida barakali ijod qildi. Chunonchi, F. Leysek 200 ga yaqin O'rta Osiyo xalqlari musiqasi namunalarini yozuvlarda jamlagan bo'lib, uni Butun

Rossiya ko'rgazmasiga taqdim etganligi ma'lum. Bundan tashqari, u "Rajabiy", "Bol juvon", "Munojot" singari el orasida mashhur kuylarni damli cholg'ular orkestriga qayta ishlash amaliyotini keng qo'llaydi. Shu maqsadda 1890 yili 30 ga yaqish xalq qo'shiq va kuylari asosida "Osiyochoa poppuri", 1923-24 yili esa "O'zbek qo'shiqlaridan poppuri" asarlarini yaratdi. F. Leysekning "Osiyo poppuri"si Chexiya va Avstriya kabi horijiy Yevropa mamlakatlarida ham ijro etilgan edi<sup>12</sup>.

O'zbek musiqa merosini to'plash va yozib olish ishlari XX asrda muntazam va izchil amalga oshirib borildi. Bunda dastlab 1919 yili Turkiston Respublikasi Xalq Maorifi Komissarligining san'at bo'limi huzurida tashkil etilgan Badiiy-etnografik komissiyasi e'tiborli faoliyat ko'rsatdi. Hay'at a'zolari – G'. Zafariy, V. Uspenskiy, N. Mironov va E. Melngaylnelar o'z oldilariga O'rta Osiyo xalqlari musiqa ijodini atroflicha o'rganishni, uni to'plab, nashr etishni va boshqa ilmiy-ijodiy vazifalarni maqsad qilib qo'ydilar. Bu boradagi dastlabki muhim ishlar mazkur komissiyaning rahbari, Turkistonga 1917 yili kelgan rus kompozitori va musiqiy etnografi V.A.Uspenskiy (1879-1949) tomonidan amalga oshirildi. Xususan, V. Uspenskiy 1921-1922 yillari Buxoroda maqomchi ustozlar – hofiz ota Jalol Nosir va tanburchi ota G'iyos Abdug'anilar ijrosida salobatli shashmaqom turkumini nota yozuvlarida ilk bor muhrlaydi. Bu mehnat natijasi ayrim kamchiliklarga qaramay (masalan, ashula yo'llari tanbur ijrosida yozilgan bo'lib, natijada ovoz tarovatiga xos nafas va xususiy bezaklar yetarlicha aks etmagan, ayrim zarb usullari ritm-o'lchov jihatdan nobop shaklda yozilgan va boshqalar) ustozlar san'atini saqlab qolishida yuksak tarixiy ahamiyat kasb etadi. V. A. Uspenskiyning Shashmaqom nota yozuvlari 1924 yili Buxoroda "Шесть музыкальных поэм (маком)" nomi bilan chop etildi. Oradan bir yil o'tib, V. A. Uspenskiy Toshkentlik mashhur hofiz Shorahim Shoumarovdan Farg'ona-

---

<sup>12</sup> Hasanov A.. Xalq musiqasi – tarbiyaning muhim vositasi.  
Toshkent, 1983



Toshkent maqom yo'llaridan bo'lgan "Dugohi-Husayn", "Chorgoh", keyinroq (1930 yili) esa "Gulyori Shahnoz" ashula turkumlarini yozib oldi.

Musiqiy merosni to'plash ishlarida N. N. Mironovning (1870-1952) faoliyati e'tiborga loyiqdir. Turkistondagi (O'zbekistondagi) o'z faoliyatini avvaliga rus armiyasining harbiy kapelmeysteri sifatida boshlagan N. N. Mironov, keyinchalik musiqiy –ma'rifiy ishlar borasida jonbozlik ko'rsatgan edi. Xususan, 1928 yili uning tashabbusi bilan Samarqandda o'zbek musiqa va xoreografiya instituti ochilgan bo'lib, unda saboq berishga Ota Jalol Nosir, Ota G'iyos Abdug'ani, Domla Halim Ibodov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov, Mamayusup Xarratov singari mashhur hofiz va sozandalar jalb etiladi. Institutning yuqori guruh talaba (aspirant)lari musiqiy merosni amaliy o'zlashtirish bilan birga uni fonograf orqali valiklarga muhrlash ishlarini ham bajarar edilar. Bu faoliyatning pirovardida N. N. Mironov tomonidan nashrga birin-ketin uch kitob tayyorlanib, ularda uning shogirdlari (M. Ashrafiy, Sh. Ramazonov, T. Sodiqov) yozib olgan milliy musiqa kuylari to'plangan edi. Bu kitoblar quyidagicha nomlarda nashr etilgan: "Музыка узбеков" (Samarqand, 1929), «Обзор музыкальных культур узбеков и других народов Востока» (Samarqand, 1931), «Pesni Бухары, Ферганы и Хивы» (Toshkent, 1931)

1932 yili o'zbek musiqa va xoreografiya instituti Toshkent shahriga ko'chirildi. (Hozirda Hamza nomidagi san'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti). Bu dargohning hodimlari V. A. Uspenskiy, Ye. Ye. Romanovskaya (1890-1947), I. Akbarov va H. Muhammedovalar (1915-1993) Toshkent, Farg'ona vodiysi (Andijon, Farg'ona, O'sh, Marg'ilon), Xorazm va Buxoro bo'ylab musiqiy-etnografik ekspeditsiyalari uyushtirdilar. Bir qator chop etilgan to'plamlar ana shu mehnatning hosilasidir. Xususan, "O'zbek xalq qo'shiqlari" (I, II kitoblar – 1939, III kitob - 1954), "Xorazm klassik musiqasi" (1939), "O'zbek cholg'u musiqasi" (1948), "Navoiy so'ziga muzikalar" (1949), "O'zbek vokal muzikasi" (1960) nota to'plamlari shular jumlasini tashkil etadi. Ushbu yozuvlar mazmunida xalq musiqasi namunalari – farg'ona ayollarining qo'shiqchilik ijodlari va kasbiy

musiqaga doir Xorazm maqomlarining cholgʻu kuy va boshqa turdagi rivojlangan ashula yoʻllari oʻz aksini topgan edi. Shuningdek, 1949 yili Ilyos Akbarov Oʻzbekiston Xalq artisti Usta Olim Komilovdan 50 ga yaqin doira usullarini yozib oldi va 1952 yili “Doira zarblari” nomi bilan chop ettirdi.

1940 yillar oxiri 1950 yillar boshlarida bu sohaga institut xodimi K. Olimboyeva (1926-1992) kelib qoʻshildi. Musiqashunos olimi “Shohsanam va Gʻarib” dostonidan ayrim kuylarni notalashtirdi. Toshkent, Fargʻona (1951) va Xorazm viloyatlariga (1952) taniqli folklorshunos olimlar M. Alaviya va K. Abdullayevlar bilan ekspeditsiyalarda qatnashib, zamonaviy xalq qoʻshiqlarini yozishga muvaffaq boʻldi. Hamda shu asosda “25 oʻzbek xalq qoʻshigʻi” toʻplamini nashr uchun tayyorladi.

50-yillardan boshlab institutning musiqa boʻlimi mudiri, sanʼatshunoslik doktori F. M. Karomatov rahbarligida Oʻzbekiston viloyatlari – Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Fargʻona vodiysi sarhadlariga keng miqyosda musiqiy folklor ekspeditsiyalari uyushtirila boshlandi. Hozirgi kunga qadar davom etib kelayotgan ushbu ijodiy jarayonda qimmatli manbalar toʻplangan boʻlib, ular asosida F. M. Karomatov “Oʻzbek doʻmbra musiqasi” (“Uzbekskaya domravaya muzyka”, 1962), “Oʻzbek xalq qoʻshiqlari” («Uzbekskiyе narodnyе pesni», Kiyev, 1980) va ikki kitobdan iborat “Oʻzbek xalqi musiqa merosi” (I kitob, 1978; II kitob, 1985) toʻplamlarini bosmadan chiqardi<sup>13</sup>.

Oʻzbek musiqa merosini asrab qolish va uni rivojlantirishda ulkan hissa qoʻshgan sanʼatkorlardan biri akademik Yunus Rajabiydir (1897-1976). Ustoz Rajabiyning oʻzbek musiqasining deyarli barcha janrlariga mansub yozuv namunalari koʻp tomlik “Oʻzbek xalq musiqasi”da (I-V tomlar, 1955-1959) nashr etilgan. Ushbu toʻplamlarda, jumladan, bolalar qoʻshigʻi, xalq aytimlari (qoʻshiq, lapar, yalla, ashula), katta ashulalar, cholgʻu kuylari, Fargʻona-Toshkent maqom

---

<sup>13</sup> Hasanov A.. Xalq musiqasi – tarbiyaning muhim vositasi. Toshkent, 1983



yo'llari, muxtasham Shashmaqom turkumi kabi ham musiqiy folklor, ham kasbiy musiqa qatlamlari namunalari munosib o'rin olgandir. 1966-75 yillari Shashmaqom majmuasini olti jildda qaytadan nashr etilishi hamda shu maqomlarni Yunus Rajabiy rahbarligidagi O'zbekiston teleradiosi maqomchilar ansambli ijrosida magnet tasmlar va lapaklarga (gramplastinkalarga) yozib olinishi bu ro'yhat salmog'ini yanada oshirdi. Yunus Rajabiy to'plamlari nisbatan mukammal darajada bajarilganligi bilan o'zbek musiqasini amaliy o'zlashtirish va nazariy o'rganishda benihoya qimmatli manbadir. Ayniqsa Shashmaqom yozuv yo'llari avvalgi urinishlardan sifatli farq etishini ta'kidlash kerak. Bunda ovoz xususiyatlari ma'lum darajada inobatga olinib, kuy-ohanglariga o'zbek mumtoz she'riyati namunalari monand etilganligi, ritm-usullar o'lchov jihatdan muvofiq aks etdirilganligi kabi muhim holatlarni alohida aytish mumkin.

Shu o'rinda Xorazm maqomlarini ham to'liq turkum tarzida Matniyoz Yusupov (1925-1992) tomonidan yozib olinishi va 1958 yili "O'zbek xalq musiqasi" to'plamining VI jildida chop etilishi e'tiborga molikdir. Xorazm maqomlari ham jiddiy o'zgarish va to'ldirishlar bilan 80-yillar davomida qaytadan nashr etilgan edi. Xorazm musiqa an'alarini o'rganishda M. Yusupov nota yozuvlariga olgan mahalliy ashula, lapar, suvora va boshqa aytim hamda cholg'u kuylari muhim ahamiyat kab etadi. Ushbu mehnat natijalari "O'zbek xalq musiqasi" ko'p tomligining VII (1960) va IX (1962) jildlarida o'z aksini topgan.

## ***2.2. O'zbekistonda musiqa san'ati tarixiga***

### ***e'tibor***

O'zbek xalqi yaratgan musiqiy merosning ildizlari juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Ajdodlarimizning maftunkor tasviriy san'ati tufayli bizgacha yetib kelgan yodgorliklar o'zbek musiqasi qadim zamonlardan boshlanganini ko'rsatadi. Yozuv taraqqiy etmaganligi, reaksion sinflarning qarshiligi tufayli qadimgi davrlardagi xalq qo'shiqlari bizning kunlarga yetib kelmadi. Surunkali feodal urushlari xalq

boshiga bitmas-tuganmas kulfat keltirdi. Qilich va zo'rlik o'zbek xalqining ko'pgina madaniy boyliklarini yo'q qilib yubordi. Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida quyidagilarni yozadi: "Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni xalok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (rivoyat va xabarlar) islom davridan keyin, haqiqatini bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi. Keyin Qutayba Ibn Muslim al Vahmiy xorazmliklarning kotiblarini halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi, bilimdonlarini o'ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgan. Sababli ular savodsiz qolib, o'z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga tayanadigan bo'ldilar." (Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. T.1965, 1-tom, 84-bet). Shu davrlarda xalq musiqasining go'zal namunalari ba'zilar unutilib ketdi. Xalq qo'shiqlari bilan tanishar ekanmiz, inson haqidagi musiqa maktabi bo'lmagan. Yetuk san'atkorlar maktab yaratishgan. Xorazm baxshilari dutor, bulomon, g'ijjak, doira, qo'shmay jo'rlikida dostonlarni yoddan aytganlar. Ya'ni zamon musiqa ilmi, san'at taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Fikrimcha, Komiljon rahbarligida tuziladigan ansambl Xorazm musiqa an'alarini milliy san'at xususiyatlarini saqlab qolish bilan birga, davr ruhini unga singdirishda, hozirgi zamon musiqasi yutuqlarini o'zida aks ettirishi, ya'ni novatorlik yo'lidan borishi kerak.

Darhaqiqat, Komiljon Otaniyozov klassik musiqamiz an'alarini yangi avlodga yetkaza olgan hofizdir. "Xalq musiqasi bebaho durdonalarga boy, negaki uning ildizlari terak," – deb bilgan Komiljon Otaniyozov Xorazm musiqa folklorining bitmas-tuganmas chashmasidan oziqlanib, avloddan avlodga o'tib, yangilanib, ohanglari jilolanib, bezaklari mukammallashib borgan musiqiy an'alar olamida voyaga yetdi. Xorazmda qadimdan san'at qadrlanadi. Komiljon Otaniyozov repertuaridagi ko'pgina qo'shiqlar folklordan aniqrog'i Xorazm xalq dostonlaridan olingan. "Tohir va Zuhra"dan "Bulbul ko'rdim", "Qizlar", "Nimasan", "Shohsanam va G'arib"dan "Sallona-sallona", "Yo'liqdim",



“Sayodjon va Xamro” dostonidan “Sayodjon bog‘dadir-bog‘da”, “Yora tegmasin” kabi qo‘shiqlar ne-ne dillarga larza solmagan<sup>14</sup>.

O‘tmishda ayrim din peshvolari musiqa san‘atidan bo‘lishni ta‘qiqar, musiqa bilan shug‘ullanishni kufr ish deb hisoblashardi. Ayni paytda Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy, Hofiz, Navoiy, Mashrab, Bobur, Nodira g‘azallari bilan aytiladigan maqomlarning ommalashuviga zo‘r berib to‘sqinlik qilishdi. Chunki bu shoirlar asarlarida insoniylik, adolatparvarlik, xalqchilik kabi gumanistik motivlar kuylanar, go‘zal yor, orombaxsh tabiat manzaralari tasvirlanardi.

Xalq san‘atkorlari o‘z haq-huquqlari uchun tinmay kurashdilar. Xalq sayillari, to‘y-hashamlari musiqasiz, qo‘shiq va raqssiz o‘tmagan. Firdavsiy “Shohnoma”siga nazar tashlasak, marosimlarda musiqaviy meros yetakchi mavqeda turganini ko‘ramiz.

*Hamma yoqda shodlik, hamma yoqda to‘y,*

*Hamma yoqda o‘yun, may, chalg‘u va kuy.*

(“Shohnoma”, 1-tom, 11-bet)

Yoki:

*O‘ltirishar, qizir bazm, may, cholg‘u,*

*Qo‘shiqchi, raqschi, qiziqchi, kulgu.*

(“Shohnoma”, 1-tom, 106-bet)

Navoiy “Xamsa”ning oxirgi dostonida Iskandarning to‘yi munosabati bilan soqiyga murojaat etib, “yor-yor” aytadi:

*Mug‘anniy tuzub chinga vaznida chang,*

*Navo chekki, hay, hay, o‘lang, jon o‘lang,*

*Desang senki: jon qardoshim yor-yor,*

*Men aytayki: munglug‘ boshim yor-yor.*

(“Xamsa”, 778-bet)

---

<sup>14</sup> O‘zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. I tom. Toshkent, 1988 y

Tuxmat va ta'na toshlaridan boshi chiqmagan mashshoqlar g'aribu benavolikda kun kechirib bo'lsa-da, xalqimizning "Chapandoz"u "Ufor"larini, "Feruz", "Bayot", "Lazgi" va "Mavriko"larini qiyomiga yetkazib ijro etganlar. Mahzun torlar mehnatkash xalq qalbidagi o'tli iztiroblarni, jabr-zulm, qashshoqlik avj olgan davr nolasini o'ziga singdirib yuborgan.

Lirik qo'shiqlar o'zbek xalqining xis-tuyg'ularini, ruhiy kechinmalarini, oliyjanob xislatlarini ifodalaydi. Xalq qo'shiqlarini sevish va o'rganish muayyan xalq tarixini, psixologiyasi hamda orzu-istaklarini anglashga imkon beribgina qolmasdan, ayni paytda xalq musiqasini ardoqlash, ma'naviy boylikni ulug'lashga ham chaqiradi. O'zbekistonda xalq madaniyatining ko'zgusi – musiqa san'ati XIX asrgacha juda kam o'rganilgan edi. Xalq talantlariga e'tibor berilmas, hofiz va mashshoqlar ijodi bir tizimda emas edi. Shundoq bo'lsa-da, mashshoq va xonandalar qadimiy xalq san'atining mo'jizakor qudratini ustozdan shogirdga o'tkazib, baholi qudrat rivojlantirishga intildilar. Ular xalq qo'shiqlarining serma'noligi-yu, g'oyaviy barkamolligini kuchaytirib, yangidan-yangi musiqiy qirralarini, ma'no nozikligini kashf etishdi.

Biroq, musiqa merosiga tom ma'noda jiddiy ahamiyat berib, xalqning nodir qo'shiqlarini yozib olish ishlari XX asrning birinchi choragida boshlandi. 1919 yilning ikkinchi yarmida xalq maorifining san'at bo'limi qoshida, Turkiston Respublikasida V. A. Uspenskiy rahbarligida musiqaviy etnografik komissiya tashkil etildi. Bu komissiyaning asosiy vazifasi O'rta Osiyo xalqlari musiqaviy merosini to'plash, qo'shiq va maqomlarini yozib olish hamda aloxida kitoblar holda nashr qildirishdan iborat edi. 1928 yilda o'lkamiz musiqa ilmi rivojida ulkan voqea ro'y berdi. Samarqandda musiqa xoreografiya ilmiy-tekshirish instituti tashkil etildi. Bu hodisa musiqaviy merosni to'plash va o'rganish sohasida yangi ufqlarni kashf etdi. Institut faoliyati xalq musiqasining ko'pgina bilimdonlari ijodi bilan chambarchas bog'liq ravishda ish boshladi. Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'ani, Domla Halim Ibodov, Shorahim Shoumarov, usta Olim Komilov kabi san'atkorlar institutga jalb etildi. Institut xalq musiqasini yozib olishda, musiqa



tarixini o'rganishda, eng muhim, san'atning nodir turini tashviqot qilishda ibratli ishlarni amalga oshirdi. O'zbek xalq musiqa folklorini o'rganishda H. H. Niyoziy, V. A. Uspenskiy, N. Mironov, V. M. Belyayev, Romanovskaya, M. Ashrafiy, Yu. Rajabiy, I. Akbarov, K. A. Alimboyeva, F. Karomatov va boshqa mutaxassislar katta mehnat qildilar. O'zbek xalq musiqasini qunt bilan to'plash va o'rganish natijasida musiqa tarixining 3 tomligi va boshqa ko'pgina asarlar yaratildi. Respublikaning 1940 yil 14 yanvarida "O'zbekiston xalq shoirlari, baxshilari va ashulachilari haqida"gi qarori xalq san'atiga otalarcha g'amxo'rligining yorqin dalili bo'ldi. Natijada shoir va mashshoqlar haqiqiy qadr-qimmat hissini angladilar va ular haqiqiy ijod pallasiga kirdilar.

O'zbek xalq qo'shiqlarining eng go'zal namunalari jahon xalqlarining olqishiga sazovor bo'ldi. 1925 yil Parijda o'tkazilgan jahon xalqlari zeb-ziynat ko'rgazmasida o'zbek san'atkorlari – Muhiddin Qori Yoqubov, Tamaraxonim va boshqalarning chiqishlari tomoshabinlar tahsiniga loyiq bo'ldi hamda ko'pgina yirik san'at va madaniyat arboblari tomonidan yuqori baholandi. Bu san'atkorlar yutug'i haqida "Yer yuzi" jurnali quyidagilarni yozgan edi: "O'zbek xalq ashulachisi Muhiddin Qori Yoqubov Parij teatrlari o'zbekning najot istagan va yuraklaridan chiqargan qadimgi ohangdor navolari bilan birga hozirgi tirik kuylarini o'zbekcha maxsus xususiyat bilan g'arbliklar oldida ijro etdi... Muhiddin Qori va Tamaraxonimlarning qishloq yigitlari bilan qizlarning lapar aytishib, o'ynashib yurganlarini ko'rsatishlari har kuni yangi bir zavq istagan parijsliklarda boshqacha shavq uyg'otadi; qishloqlarimizdagi ishqning qanchalik tabiiy va chiroyli ekani ularga yoqdi, ashulachilarimiz olqishlar orasida sahnada qayta-qayta ko'rinmakka majbur bo'ldilar."

O'zbek musiqa san'atining olamga tanilishi bu bilan cheklanmaydi. 1935 yil Londonda o'tkazilgan jahon xalqlari raqslari festivalida mashhur naychi, qo'qonlik Abduqodir Islomov, doirachi usta Olim Komilov kabi ko'pgina o'zbek san'atkorlari ham ishtirok etishdi. Festivaldi Usta Olim Komilovning doira chalish mahorati yuksak baholandi va oltin medal bilan taqdirlandi. Yoki "Bahor" raqs

ansamblining horijiy davlatlar sahnasidagi muvaffaqiyatlari qadimiy o‘zbek musiqa san’atining haqli yutug‘i sanaladi. “Bahor” qizlarining jozibali raqslaridan lol bo‘lgan taniqli hind yozuvchisi Xo‘ja Ahmad Abbos shunday degan edi: “O‘zbeklar Hindistonni ikki marta zabt etdilar. Birinchi marta uni o‘zbek xoni Bobur zabt etdi. Bu bir necha asr muqaddam bo‘lgan edi, ikkinchi marta Hindistonni bir necha yil ilgari o‘zbek ayoli Mukarrama Turg‘unboyeva zabt qildi. U bizning qalbimizni go‘zal va dilrabo san’ati bilan maftun qildi.” (Chet elliklar O‘zbekiston haqida, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1972 yil, 67-bet)

Respublikada xizmat ko‘rsatgan “Yalla” vokal-cholg‘u ansambli 1975 yilda Vetnamda gastrolida bo‘lib, ulkan muvaffaqiyat qozondi. Tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘lgan bu qo‘shiqlarning bari asli xalq kuylari va qo‘shiqlari asosida qayta ishlangan. Ansambl repertuaridagi “Sumalak”, “Boychechak”, “Qarg‘alar”, “Yallama yorim”, “Tomboshida tog‘ora”, “Oq terakmi ko‘k terak” kabi qo‘shiqlarda oddiy o‘zbek hayotining qaynoq nafasi ufurib turadi. “Boychechak” qo‘shig‘ida bahor ramzining poetik ifodasi jo‘shqin misralarda ko‘klam bo‘lib jamlanadi:

*Boychechagim boylandi,*

*Qozon to‘la ayrondir.*

*Ayroningdan bermasang*

*Qozon tovog‘ing vayrondir.*

Bu qo‘shiqlar faqatgina o‘zbek xalqining madaniy boyligi bo‘lib qolmasdan, jahon san’atining umumiy mahsuliga aylandi. Chunki bunday qo‘shiqlarning so‘z tartibi sodda va tiniq bo‘lib, musiqiy ravonligi dillarni quvontiradi: ham ijro uchun qulay, ham poetik rang-barangligi bilan ta’sirchan chiqadi. Musiqa san’atining qaysi janrida bo‘lmasin operadami, baletdami, simfonik asardami yoki estrada kuylaridami, albatta xalq kuylarining salmoqli xissasi bor. Xalq – mehri daryo ijodkor. Xalq musiqa san’atining qaynar bulog‘i musiqa yaratuvchilarning doimiy ilhom va ijod manbaidir.



Keyingi paytlarda xalq musiqasini o'rganishga jiddiy ahamiyat berilmoqda. O'zbek xalq musiqa merosini o'rganish jahon miqyosida tarqalmoqda. Xususan, 1970 yil oktabr oyida Samarqand shahrida o'tkazilgan (va o'tkazib kelinayotgan) "Yaqin va O'rta Sharq xalqlari professional musiqasining an'analari va zamonaviylik" mavzuidagi xalqaro simpoziumlarda avloddan avlodga o'tib kelayotgan noyob xalq professional musiqa san'ati bo'lmish maqomlarning amaliy, nazariy va tarbiyaviy imkoniyatlari izchil tahlil qilinib, maqom san'atini tashviqot qilish masalasida amaliy tadbirlar kelishib olindi. Maqomlar mohiyatini to'g'ri tushunish uchun avvalo oddiy xalq qo'shiqlarini sevish, musiqa san'atini qadrlash, eng muhimi, madaniy merosga e'tiqod qo'yish lozim. Maqom oddiylikdan murakkablikka o'tishni talab qiladi. Oddiy xalq qo'shiq va kuylarining qalbga olam-olam zavq bag'ishlovchi sehrini bilmagan odam maqomday murakkab musiqiy mo'jizaning estetik zavqini xis etolmaydi. O'zbek musiqashunosi Yunus Rajabiy o'zining "Musiqashunoslik haqida" nomli asarida maqomning ijrochilik yo'llari xalq ohanglari bilan bog'liqligi masalasiga to'xtalib: "Maqom yo'llari bilan xalq musiqa asarlari orasida hech qanday farq yo'q. Xalq musiqasining kichik yoki yirik shakldagi hamma turlari maqomning u yoki bu qismiga ohangdosh," – degan edi. Xalq qo'shiqlari o'zining musiqiy ravonligi va ritmik ko'rinishi bilan xalq og'zaki ijodining professional ko'rinishi bo'lgan ko'p qismli vokal-cholg'u asari bo'lmish maqomlar bilan ham uzviy bog'liqdir.

Maqomla asosan ko'p qismliligi, ovoz diapazonining kengligi, masshtabining kattaligi va ijrochilikdagi murakkabligi bilan o'zbek xalq qo'shiqlaridan farq qiladi. Maqomlarning ijrochilikdagi murakkabligi va hozir o'rta maktablarda musiqa darslari dasturida atroflicha tahlil qilib o'rgatilmashligi uchun ham bu nodir musiqa merosimizni yoshlar yaxshi tushunmaydilar. Chunki xalq qo'shiqlari, maqomlar xalq ma'naviyatida ijobiy o'rin tutganligi uchun ham bu musiqaviy meros asrlar osha og'izdan tushmasdan kuylanib kelindi. Musiqashunoslik darslarida xalq og'zaki professional san'ati namunalari bilan tanishtirib borish o'quvchilarda ma'naviy merosga samimiy muhabbat uyg'otadi, yoshlarni xalq

qo'shiqlarini sevish, bobolarimiz ideallari kuylangan barhayot misralarni qadrlashga o'rgatadi. Yoshlarni ma'naviy merosning doimiy ta'siri vositasida tarbiyalash zarur. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, musiqa merosimiz hazinasidagi turli janrlarga mansub asarlar o'z milliy xususiyatlarini saqlagan holda zamon bilan hamnafas bo'lib yashnamoqda.

### ***3. Bolalarni xalq musiqasiga bo'lgan munosabatini tarbiyalash***

Ma'naviy barkamol inson bo'lish nafaqat bugungi kunda mavjud bo'lgan go'zallik nashidasidan bahramand bo'lishni, ona yurtning asriy an'alariga sodiqlikni anglash, ularni o'zlashtirib borishni taqozo etadi. Mana shunday qadriyatlar tizimida musiqiy meros va qadriyatlar alohida ahamiyatga molik.

Sharq mutafakkirlari har tomonlama mukammal bo'lgan inson haqida, ya'ni insonni eng yuksak kamolotga erishganlik holati haqida ko'plab fikr bildirganlar. Shayx Aziziddin Nasafiy inson kamolotida to'rt muhim jihat asosiy o'rin tutishini ta'kidlaydi. U shunday deydi: "Kamil inson shunday insondirki, unda quyidagi to'rt narsa kamolotga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif. Zero, ma'naviy, madaniyatli inson shu to'rt xislatni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak." Bu fikr hozir ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgan emas.

Mashhur rus pedagogi V. A. Suxomlinskiy o'zining "Tarbiya to'g'risida" asarida musiqaning tarbiyaviy imkoniyati haqida to'xtalib, "musiqa tufayli insonda olijanoblik, ulug'vorlik, go'zallik tashqi dunyodagina emas, balki uning o'zida ham mavjud ekanligi to'g'risidagi tasavvur yuzaga keladi. Musiqa – o'z-o'zini tarbiyalashning qudratli vositasidir," – degan edi. ("O'qituvchilar gazetasi", 1976 yil 12 avgust). Buni tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan o'zbek xalq musiqa merosi o'rta maktablardagi musiqa darslari jarayonida qay darajada o'rganilmoqda.



O‘z kuzatishlarim, ko‘pgina musiqa o‘qituvchilari bilan o‘tkazgan suhbatlarim natijasida shunday fikrga keldimki, milliy musiqa merosini o‘rganish ishlari dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda bir tizimga kelmay, aniq maqsadga qaratilgan holda pala-partish olib borilmoqda. O‘qituvchilarning ko‘pchiligi musiqiy meros bilan yaxshi tanish emas, musiqa asarlarining asl estetik mohiyatini tushunmaydilar.

Musiqa sohasida malakali mutaxassislarning yetishmasligi ham darsni samarali tashkil etishga to‘sqinlik qilmoqda. O‘qituvchilarning aksariyati cholg‘u asbobini sozlash, tovushlarning baland pastligini sezish, ritmni idrok etish, tovushlarning garmonik jarangligini xis qila olmaydilar. Bu esa ularda ta‘limning tub asosini va yo‘nalishi tashkil etishning bosh mezoni – musiqiy talantni yo‘qligi demakdir. Bunday o‘qituvchilar boshlang‘ich sinflarda musiqadan dars berishga, binobarin, o‘quvchilarni musiqaviy estetik ruhda tarbiyalashga qodir emas.

Turli yo‘nalishdagi tarbiya ishlarini nihoyatda tushunarli, sodda va yuksak metodik darajada tashkil etib, bolalarga ilk yoshdayoq mehnat malakalarini, jismoniy tarbiyani singdirish, ularda musiqa va san’atda, atrof-tevarakdagi ob’ektiv dunyoga did bilan qarashni yuksaltirish kerak.

Musiqa san’ati xalq ijodining bir qismigina emas, inson ruhining pedagogi va rahnamosidir. Musiqa inson dunyoqarashini tiklash, vaqtinchalik muvaffaqiyatsizliklar oldida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik kabi xislatlarini tarbiyalaydi. Musiqa kishilarni birlashtiruvchi buyuk kuch. Nafis kuy tinglayotgan kishi ijrochi qalbida kechayotgan hissiy g‘alayonlarga sherik bo‘ladi, musiqa asarining g‘oyaviy idealligini ko‘z oldida gavdalantiradi<sup>15</sup>.

“Musiqa kishini hayotga chanqoqlikka o‘rgatadi, mehnat unumini oshiradi. Insonning hayotga bo‘lgan siyosiy, estetik qarashlari shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Inson musiqasiz yashashni tasavvuriga sig‘dirolmaydi. Musiqiy

---

<sup>15</sup>. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995 y.

tovushlarsiz hayot kar va qashshoqdir,” – degan edi buyuk kompozitor Shostakovich (Shostakovich, Beseda s molodyoyyu, M., Izdatelstvo “Iskusstvo”, 1969 yil, 3-bet). Shaxsda insoniy ideallarni tarbiyalashda musiqa muhim ahamiyatga ega ekan, yoshlarni bu madaniy merosga muhabbat ruhida tarbiyalash lozim.

Ma'lumki, musiqa fani bo'yicha maktab dasturida xalq qo'shiqlari salmoqli o'rin tutadi. O'quvchilarda badiiy-estetik didni shakllantirishda o'zbek xalq she'riyatining qadimiy turlaridan biri – mehnat qo'shiqlari katta rol o'ynaydi. Shuningdek, dars jarayonida bolalarni mavsum-marosim qo'shiqlari va bolalar folklori namunalari bilan tanishtirib borilsa ijobiy natija beradi. Bolalar qo'shiqlari va o'yinlari kichkintoylarning tabiat, inson, so'z sehri haqidagi qarashlarini boyitadi. Taniqli olim, musiqa san'atimizning chinakam jonkuyari Yunus Rajabiy yozib olib nashr ettirgan “O'zbek xalq musiqasi” kitobining 3-tomida bir qator bolalar qo'shiqlari ham notaga olinganki, samimiy orzular qanotiga bitilgan. Bu xandon misralar yosh yuraklar to'ridan otilib chiqqan mo'jizadir. “Boychechak”, “Tomdan tarasha tushdi”, “Olatoy”, “Chuchvara qaynaydi”, “Laylak keldi”, “Oftob chiqdi”, “Chittigul”, “Mo'ndi-mo'ndi”, “Chori-chambar”, “Zuv-zuv borag'ay”, “Oq terakmi ko'k terak” kabi qo'shiqlar fikrimiz dalilidir. Bu qo'shiqlar, bir tomondan, urf-odatlarimiz bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, yoshlarning estetik didiga mosligi bilan xarakterlanadi. Bolalar qo'shiqlarida ovoz diapazoni kvarta intervali atrofida bo'lib, tex sur'atda ijro etiladi.

Xalq qo'shiqlarining ijro uchun qulayligi, musiqiy ravonligi o'quvchilar xorida aytishda ham qiyinchilik tug'dirmaydi.

Tumanimizdagi – maktabda xalqimizning musiqa merosini o'rgatishga katta ahamiyat berilgan. Musiqa fani o'qituvchisi dars paytida va sinfdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni xalq ijodining serqirra va maftunkor tarmog'i – musiqiy meros sirlari bilan tanishtirishda ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. O'qituvchi avvaldan tayyorlangan savollar bilan o'quvchilarning bilim



saviyasi hamda estetik didini o‘stiradi. Asosiy mavzuga o‘tishdan avval o‘rtaga tashlanadigan savollar tahminan quyidagicha tuzilishi mumkin:

1. Xalq qo‘shiqlari deganda nimani tushunasiz?
2. Xalq qo‘shiqlarida nimalar kuylanadi?
3. Xalq cholg‘u musiqa asari deganda nimalarni so‘zlash mumkin?
4. Xalq cholg‘u asboblarning funksiyalari nimalardan iborat?
5. Xalq qo‘shiqlaridan qaysilarini yod bilasiz?

Bunday savol-javoblar o‘quvchining fikrlash qobiliyatini o‘stiradi, qo‘shiqlarning tarixiy-ijtimoiy asoslarini to‘g‘ri belgilash va xalq musiqa merosining vokal, cholg‘u janrlari to‘g‘risida kengroq tushuncha hosil qilishda muhim ahamiyatga molik ekanligi shubhasiz.

O‘quvchilarni professional san‘at turi – maqom bilan tanishtirib borish lozim. Umumta‘lim maktablari uchun mo‘ljallangan musiqa darslari dasturida yuqori – VI, VII sinflarda darsning musiqa tinglash qismi uchun ko‘proq vaqt ajratish ko‘zda tutilgan. Musiqa tinglash vaqtida “Munojot”, “Samarqand ushshog‘i”, “Qaro ko‘zim” kabi klassik qo‘shiqlar ijro etilib, o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinsa, milliy musiqa san‘atiga muhabbat hissi shakllanadi.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarining mungli, mag‘rur, jozibali ohanglari inson qalbiga kuchli ta‘sir etishi bilan birga, kishining shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Hali yozuv bo‘lmagan davrlardayoq xalq o‘z qo‘shiqlarida qiyin va tahlikali turmushning turli qirralarini kuyga solib tarannum etgan. Xalq ijodini o‘rganishga jiddiy e‘tibor berilsa, maktablarda folklor ansambllari, xor jamoalari, xalq raqsi va maqomchilar guruhi tashkil etish qiyin emas. Chunki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘qituvchi xalq musiqa folklori haqida istaganicha ma‘lumot berishi mumkin. O‘quvchilarda musiqaga mehr va havas uyg‘otish, ularning musiqaviy saviyasini oshirish uchun ashula va musiqa sohasida olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni har tomonlama kuchaytirish lozim. Xalq qo‘shiqlari, mashhur hofizlar, mashshoq va musiqashunoslar ijodi haqida ommaviy leksiya va konferensiyalar, musiqa bayramlari o‘tkazib turilsa, musiqa san‘atining

tarbiyaviy-estetik ahamiyati yanada ortadi. Zalda Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'chi Toshmuhammedov, domla Halim Ibodov, Shorahim Shoumarov, Muhiddin Qoriyoqubov, Yunus Rajabiy, Komiljon Otaniyozov kabi yetuk san'atkolar qo'shig'i yangrasa, tinglovchilar serziyo, maftunkor san'atning sehrli dunyosiga ipsiz bog'lanadilar. 1978 yil oktabr oyida Samarqandda o'tkazilgan xalqaro musiqashunoslik simpoziumi tashkiliy qo'mitasining mas'ul kotibi Vyacheslav Shurov bir maqolasida: "Agar yoshlarni maqom, mug'om., muqom va raga san'atiga qizqitirib, o'rgatib borilmasa hamda noyob xalq merosiga musiqa jamoatchiligi yetarli darajada e'tibor bermasa, bu san'at kelajak avlod xotirasidan asta-sekin o'chib boradi va buning natijasida insoniyat yuksak badiiy qimmatga ega bo'lgan asarlardan bebahra qolishi mumkin," – deb yozgan edi. Musiqaviy tarbiya berishni yoshlikdan boshlash kerak. Agar juda yoshlik chog'idanoq bola qalbiga musiqa asarining go'zalligi ta'sir ettirilsa, agar bola tovushlarda inson his-tuyg'ularining ko'p qirrali ma'nolarini sezsa, u boshqa hech qanday vositalar bilan erishib bo'lmaydigan madaniyat cho'qqisiga ko'tariladi. Musiqa ohangi go'zalligini his etish bola qarshisida o'z go'zalligini yaratadi – kichik inson o'z obro'-e'tiborini anglaydi. Musiqa tarbiyasi – bu musiqachini tarbiyalash degan gap emas, balki birinchi galda insonni tarbiyalash demakdir.

Darhaqiqat, musiqa tarbiyasi – inson tarbiyasining muhim shartlaridan biri. Musiqiy go'zallikdan bahra olib ulg'aygan kishi tabiatning buyuk mo'jizasi – insonni ardoqlay oladi, uning qalbida nafis tuyg'ular kurtaklanadi. Musiqa insonni hayot chorrahalaridan o'tishga chog'laydi<sup>16</sup>.

Insonni musiqa san'atiga muhabbat ruhida tarbiyalashda oilaning rolini alohida ta'kidlash kerak. Inson musiqani tinglash, u bilan shug'ullanishni qancha erta boshlasa, unda ana shu go'zal san'atga bo'lgan moyillik va ehtiyoj shunchalik

---

<sup>16</sup> Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. Toshkent, "O'qituvchi", 1995 y.



tez hamda mukammal rivojlanib boradi. Atoqli shoir Abdurahmon Jomiy o'zining "Musiqqa haqida risola" asarida maqomlar xususida fikr yuritib, shunday deb yozgan edi: "Bilki, kishiga lazzat baxsh etishdan iborat umumiy xususiyatdan tashqari o'n ikki maqomdan har biri, har bir ovoza va sho'ba maxsus ta'sir kuchiga ega. Ushshoq, navo va bo'saliq qudrat hamda jasurlik uyg'otadi, vaholanki, ovoza bunday ta'sir kuchiga ega emas." (Abdurahmon Jomiy, Musiqqa haqida risola, T., "Fan" nashriyoti, 1980 yil, 65-bet). Maqom va umuman musiqqa san'atining inson ruhiyatiga ta'siri, uning buyuk tarbiyaviy ahamiyatini ulug' shoir juda to'g'ri baholagan. Oiladagi musiqaviy tarbiya bolada shu san'atga bo'lgan ixlosni oshiradi. Ota-ona o'z farzandidagi bu qobiliyatni seza olsa, musiqqa asarlari cholg'u asboblari texnikasi bilan muntazam tanishtirib borilsa, yosh bolaning san'at to'g'risidagi fikr doirasi kengayadi, taassurotlari boyiydi. Ma'lum musiqqa asarini oila davrasida muhokama qilishning ham muhim fazilati bor: odam san'at haqidagi tushunchaga qancha erta ega bo'lsa, musiqaviy mushohada qobiliyati shuncha barvaqt shakllanadi.

Oiladagi musiqaviy tarbiya bolalarning san'atga bo'lgan xavas va qiziqishlarini, ongli va emotsional idrok etish malakalarini shakllantiradi.

Shunday ekan, yoshlarda go'zalikka, nafosatga, xalq madaniyatiga hurmat hissini tarbiyalash, san'atdan ruhiy ozuqa olish ehtiyojini vujudga keltirish kerak. Chunki inson qalbida doimo go'zalikka tashnalik bo'lgandagina barkamol shaxs sifatida shakllanadi. Har bir ijtimoiy taraqqiyotdagi ijobiy yoki salbiy voqealar xalq qo'shiqlarida, dostonlarida, raqslarida o'z aksini topib kelgan. Xalq musiqqa merosi bitmas-tuganmas xazina bo'lib, yoshlarni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi badiiy-estetik manba sanaladi. Shuning uchun ham musiqqa folklori xalq donishmandligining badiiy estetik asosi bo'lib, yoshlarni musiqaviy-estetik ruhda tarbiyalashda salmoqli o'rin tutadi.

Musiqqa insonning xotirasini va ritmik tuyg'usini o'stiradi, musiqaviy qobiliyatini rivojlantiradi. Musiqqa san'ati insonning go'zalligi va nafosat haqidagi tasavvurini kengaytiradi. Musiqaning ta'sirchan kuchi olijanob fazilatlarni kamol

toptiradi, ma'naviy va ahloqiy go'zallik olamiga yetaklaydi. Xalq kuylari, klassik qo'shiqlarining estetik va ahloqiy-tarbiyaviy ahamiyati insoniy dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

#### ***4. Bolalar musiqa folklori xalq folklorining***

##### ***tarkibiy qismi***

Bolalar musiqa folklori uzoq asrlardan buyon mavjud. Kattalar butun bir tizimdan iborat bolalarni erkalash poeziyasini yaratganlar: g'aroyib ertaklar to'qiganlar, zehni charhlovchi topishmoqlar, nutqini o'stiruvchi tez aytishlar, o'yinga chorlovchi qo'shiqlar ijod qilganlar.

O'zbek bolalar folklorida bolalikning qalb tebranishlari, qiziqish va ehtirolari, voqelikka munosabatlari o'ziga xos ifodasini topgan. Bolalar shular bilangina cheklanmaganlar; ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot taqozosi bilan kattalar repertuariga daxldor ayrim folklor namunalarini o'zlashtirib, "o'zlariniki" qilib borganlar. Bugungi kunda topishmoqlar, tez aytishlar va qo'g'irchoq teatrining tom ma'noda bolalarniki bo'lib qolgani hech kimda shubha uyg'otmaydi.

Bizda o'zbek bolalar folklori namunalarini yozib olish ishlari ancha kech boshlandi. O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab ayrim rus oriyentalistlari, umuman, turkiy xalqlar folkloriga e'tibor bera boshladilar. Jumladan, N. P. Ostroumov va A. Vasilevlar o'zbek topishmoqlarini to'plab nashr ettirdilar. A. Divayev qozoq va qirg'iz allalarini, shuningdek, qozoq bolalari o'yinlarini to'plashga kirishdi. A. A. Samoylovich tatarlarning tez aytishlari, V. Gardlevskiy usmonli turklar va M. F. Gavrilovlar qirg'iz tez aytishlariga oid kuzatishlarini e'lon qildilar. N. P. Pantusov qirg'izlarning "To'qqiz qumaloq" o'yinini tavsifladi. Ammo bunday kuzatishlar qat'iy tizimli yo'nalishga ega bo'lmaganligidan turkiy xalqlar bolalar folkloriga xos barcha jarayonlarni to'la aks ettira olmasa-da, turkiy xalqlar bolalar folklorini to'plashdagi muayyan bir bosqich sifatida favqulodda ilmiy qimmatga molik. Shuningdek, er-xotin N. va M. Nalivkinlarning Farg'ona vodiysi o'zbek bolalari turmushiga oid kuzatishlari ham e'tiborga loyiq. Ular bolalarning o'tmishdagi



H. Zarif rahbarligida o'zbek folklorshunoslari bolalar folklorini to'plashga va tadqiq etishga kirisha boshladilar. Bunday izlanishlar, ayniqsa, 60-70-yillarda avj oldi. Z. Xusainova o'zbek topishmoqlarini to'plab, matn jihatdan nashrga tayyorladi va ularni tadqiq etishda e'tiborga loyiq natijalarga erishdi. Ayniqsa, uning "O'zbek topishmoqlari" monografik tadqiqoti va 2664 ta topishmoqni o'z ichiga olgan "Topishmoqlar" to'plami o'zbek bolalar folklorshunoslik ravnaqiga jiddiy hissa bo'lib qo'shildi. G'ani Jahongirov esa o'zbek bolalar folklori xususiyatlarini o'rganish va umumlashtirish sohasida uzoq yillardan beri g'ayrat ko'rsatib kelmoqda. Shunday izlanishlar natijasida "Bolalar ertaklari" singari tadqiqotlar yuzaga keldi. U bu tadqiqotlarida ilk bor o'zbek bolalar folklorini yozib olish va o'rganish tarixiga nazar soldi, bolalar folklorini tasnif qilishga urinib ko'rdi va nihoyat, beshik qo'shiqlari, tez aytishlar, topishmoqlar, bolalar qo'shiqlari va o'yin folkloriga oid nazariy kuzatishlarini bayon qildi.

Shuni ham aytish kerakki, mavsum va marosim qo'shiqlariga tayanilib, ularning ijodkori har qachon kattalar bo'lganini e'tirof etish evaziga bolalar qo'shiqchiligini cheklash hollari ham ko'zga tashlanadi. To'g'ri, marosimlarni kattalar uyushtirganlar. Ularning o'tkazilishi tartiblarini ham, rasm-rusumlarini va qo'shiqlarini ham kattalar ijod etgani rost. Lekin unutmaslik lozimki, shu marosimlarning aksariyati bolalar ishtirokisiz o'tmagan; hech bo'lmaganda bolalar tomoshabin sifatida unga qatnashganlar va kattalar bajargan ishlarni ko'rgach, o'sha marosimni keyin o'yinda muqallid qilib o'zlari bajarganlar, shu muqallidlariga yarasha qo'shiqlarni ham to'qiganlari ayni haqiqat. Bu jihatdan etnograf olimi Ye. M. Peshcherovanning 1923-24 yillardagi ekspeditsiyalarda to'plagan materiallari, chunonchi, 1924 yilning 10-20 aprelida o'tkazilgan lola sayli va marosimda bolalar ishtiroki haqidagi ma'lumotlari g'oyat qimmatlidir. Binobarin, bolalarning ham o'z marosim va mavsum qo'shiqlari yuzaga kela boshlagan. Bu jarayon davr o'tishi, turmush sharoitining o'zgarishi, yangi sotsial munosabatlarning tug'ila borishi tufayli u yoki bu marosimning tamoman yo'qolishi, yo shunchaki kattalar o'rtasida nufuzini yo'qotishi natijasida o'sha

marosim bolalar o'yin yoki ijrochiliga yashash shakliga o'tishi bilan yanada chuqurlasha borgan. Aytaylik, "Yo, ramazon" tipidagi qo'shiqlar qachonlardir kattalar repertuarida paydo bo'lgan. Yangi davr va yangi munosabatlar taqozosiga ko'ra bolalar repertuariga o'tib, hozirgacha yashab kelmoqda. Hozir bu tipdagi qo'shiqlarga kattalar repertuarining namunalari sifatida qarash mutlaqo asossizdir. Bunday holatni "Boychechak", "Chittigul" tipidagi mavsum qo'shiqlari misolida ham ko'rish mumkin. Ye. M. Peshcherova yozadi: "Bolalarning erta bahorda gul ko'tarib eshikma-eshik qo'shiq kuylab yurishlariga bugungacha ham keksalarning jiddiy qarayotganliklari shu bahoriy qo'shiqlarning qadim zamonlarda bolalar kuylamaganligini ko'rsatadi." (Peshcherova Ye. M. Nekotorqe igrы sredi osedlogo naseleniya Turkestana, "Byulleten SAGU", № 11, 1925g., 82-95 bet).

Nihoyat, olim "Boychechak", "Chitti gul", "Opoqijon", "Binafsha" singari mavsum qo'shiqlari bilan bog'liq bolalar o'yinlari tafsilotini keltiradiki, bu – qachonlardir kattalar tomonidan yaratilgan mazkur qo'shiqlarning asrimiz boshlaridayoq bolalar repertuariga tamoman o'tib, singib va o'zlashib ketganligini yaqqol tasdiqlaydi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, qo'shiq qaysidir bir ijtimoiy qatlamda yaratilib, o'sha ijtimoiy qatlam o'zgarishi, yo barham topishi natijasida uning ehtiyojlari doirasidan chiqib qolishi tufayli boshqa bir ijtimoiy qatlam ermagiga aylanishi yo tamoman yo'qolishi tabiiydir. Bu o'ziga xos traditsion (an'anaviy) vorislik halqasining yuzaga kelishidan iborat jarayon bo'lib, o'z navbatida, qo'shiq umrining ko'p qatlamligini ta'minlashdan tashqari, yana kattalar repertuariga taalluqli u yoki bu folklor asarining bolalar repertuariga o'tishining, bolalar og'zaki ijodiyoti va ijrochiligining namunasiga aylanishining qonuniyligini tasdiqlaydi. Bu qonuniyat bolalar folklorining kattalar folkloriga vorislik huquqini asoslaydi, ular o'rtasidagi munosabatning xarakterini ko'rsatadi, kattalar folklori va xalq etnografiyasi zaminida rivojlanish tendensiyasini ravshanlashtiradi, shuni ta'kidlash zarurki, bu vorislik bolalar folklorining kattalar folkloriga muteligi qobig'ida o'ralib qolmay, balki mustaqil ijodiy o'zlashtirish, o'sish va boyish negizida kechib, o'zbek bolalar folklorining, jumladan, uning



behad keng tarqalgan va xilma-xil janrlarga boy tarmogʻi boʻlgan bolalar qoʻshiqchiligining taraqqiyotiga oʻziga xoslik bagʻishlangan omil hamdir.

Ana shu mulohazalarning oʻziyoq oʻzbek bolalar qoʻshiqlarini toʻplab, tektologik jihatdan tartibga solishni, janr xarakteriga koʻra saralab nashr etishni, estetik jihatdan tadqiq qilishni, shu asosda gʻoyaviy-badiiy, ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlarni umumlashtirib, musiqiy tarbiya maqsadlari yoʻlida xizmat qildirishni davrning dolzarb ehtiyojiga aylantirib qoʻyayotir. Zotan, Elbek tartib bergan “Bolalar qoʻshigʻi”dan keyingi 40 yildan ziyod muddat davomida nashr qilingan bolalar qoʻshiqlarining umumiy miqdori 1500 satrdan oshmaydi. Ular ham, asosan, kattalar folklori nashrlariga yo aralashtirilgan, yo ilova qilingan. Ham davr, ham manba eʼtiboriga koʻra behad sochilib ketgan bu qoʻshiqlarning koʻpchiligi, asosan, Toshkent vohasi, Xorazm va Fargʻona vodiysiga qarashli shahar va qishloqlarda yashovchilardan Ye. M. Peshcherova, Elbek, H. Zarif, I. Akbarov, Yu. Rajabiy, M. Alaviya, H. Razzoqov, J. Qobulniyozov, Z. Husainova, Gʻ. Jahongirov, Y. Sultonov va boshqalar tomonidan yozib olingan. Biroq shuni aytish kerakki, toʻplangan material hali juda oz boʻlib, oʻzbek bolalar qoʻshiqlarining yaxlit manzarasini tasavvur etishga imkon bermaydi. Buning oqibatida qadimiy va muttasil yangilanib borayotgan oʻzbek xalq qoʻshiqchiligi, qolaversa, butun bolalar folklori birmuncha qashshoq tasavvur etilmoqda. Bu narsa oʻzbek bolalar folklorini toʻplashga jiddiy krishish va nisbatan mukammal toʻplamlar tuzishni taqazo etadi<sup>18</sup>.

1969 yildan boshlab respublikamizning janbuiy viloyatlari Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, qisman Xorazm va Turkmaniston respublikasining Farob tumani hamda Chorjuy shaharlarida, qishloqlarida bolalar folklorini kuzatish ishlarini olib borildi, juda koʻp namunalar yozib olindi. Bu

---

<sup>18</sup> Odilov A. Oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik tarixi. Toshkent, “Oʻqituvchi”, 1995 y.

ishda Buxoro pedagogika instituti o'zbek filologiyasi, boshlang'ich ta'lim metodikasi fakultetlari talabalari ham jalb etildi. 12 yil davomida yiqqan bolalar qo'shiqlarining umumiy miqdori 20 ming satr atrofida bo'lib, shundan 15 ming misradan ziyodrog'i o'zbek tilidadir. Ana shu materiallar Hodi Zarifov nomidagi folklor arxivida saqlanib, yurtimizning turli joylaridan turli vaqtlarda H. Zarifov, M. Alaviya, Z. Husainova, T. Mirzayev, M. Murodov, B. Sarimsoqov, G'. Jahongirov, H. Razzoqov, S. Ro'zimboyev va boshqalar to'plagan qo'shiqlar "Boychechak" nomli to'plam bo'lib nashr qilindi.

## *II-bob bo'yicha xulosa*

Yoshlarda go'zalikka, nafosatga, xalq madaniyatiga hurmat hissini tarbiyalash, san'atdan ruhiy oziq olish ehtiyojini vujudga keltirish kerak. Chunki inson qalbida doimo go'zalikka tashnalik bo'lgandagina barkamol shaxs sifatida shakllanadi. Har bir ijtimoiy taraqqiyotdagi ijobiy yoki salbiy voqealar xalq qo'shiqlarida, dostonlarida, raqslarida o'z aksini topib kelgan. Xalq musiqa merosi bitmas-tuganmas hazina bo'lib, yoshlarni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi badiiy-estetik manbaa hisoblanadi. Shuning uchun ham musiqa folklori xalq donishmandligining badiiy estetik asosi bo'lib, yoshlarni musiqaviy-estetik ruhda tarbiyalashda salmoqli o'rin tutadi.

Glinkaning mashhur ta'biri bilan aytganda, musiqani xalq yaratadi. Xalq musiqa ijodi – bebaho xazinadir. Undan istagancha olish va ayni mahalda uni e'zozlab, ehtiyot qilish – musiqa madaniyati barcha arboblarning burchidir.

Xalq tinmay ijod qiladi, binobarin, u yaratgan asarlarni ham muttasil yig'ib borish lozim. Xalq yaratgan qo'shiqlar iftixor tuyg'usini, Vatanga muhabbat hissini uyg'otadi. unda xalq qalbi, xalq hayoti butun rang-barangligi bilan o'z aksini topgan. Xalq qo'shiqlarini o'z san'ati bilan tinglovchilar qalbini maftun etgan qanchadan-qancha iste'dodli ijrochilar kuylashgan. Bu kishilar bilan, ularning san'ati bilan uchrashuv muxlislarda yorqin tuyg'ular qoldirgan.



To'g'ri, "xalq qo'shiqlari "o'lib bormoqda", unga qiziqish tugab bormoqda" deguvchilar ham bor. Biroq turmush voqeligida bunga hech qanday asos yo'qligini vaqt ko'rsatmoqda. Bugungi kunda xalq qo'shiqlari estrada guruhlari tomonidan ham, radio, televideniye orqali ham jaranglamoqda, uni xorda, vokal ansambllarida kuylashmoqda, ular ko'plab taniqli hofizlarimiz repertuaridan joy olgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimda o'zimning quyidagi takliflarim, fikr-mulohazalarimni ham bildirmoqchman:

1. Xalq qo'shiqlarini, yumshoqroq qilib aytganda, takomiliga yetkazilmay ijro etiladigan holatlar hozir ham uchrab turadi. Bunday qo'shiqlar malakasi past, xalq ijodiy an'analari sohasida chuqur bilimga ega bo'lmagan kishilar tomonidan ishlanadi. Bunday musiqachilar qo'shiqni ishlash – unig melodik negizini saqlab qolish, uni yanada ohangdorroq, koloritliroq qilish ekanligini unitib qo'yishadi. Buning uchun esa xalq yaratgan qo'shiqlarni chuqur tushunish, uni samimiy xurmat qilish va sevish ham kerak.

2. Bizda folklorga munosabatda xato yo'ldan boradigan – ko'r-ko'rona nusha ko'chiradigan ayrim ijrochilar, ba'zan esa hatto kichikroq jamoalar ham bor. Hozir kim "sof" xalq ohangida qo'shiq aytadi? Albatta, qariyalar-da, deb o'ylashadi ular. Shu tariqa qariyalar ijro etgan qo'shiqlarni vijdonan, pishiq-puxta qilib yozib olib, bu qo'shiqni qariyalar ijro etganini, ular endi aslo yoshlikdagi kabi qo'shiq ayta olmasligini unitib qo'yib, qanday eshitishgan bo'lsa, shunday ijro etishaveradi. Bu ishda, xalq qo'shiqlarini ijro etish go'zalligiga ziyon yetkazmagan holda, ijodiy, tanlab yondoshish zarur.

3. Menimcha, hali hal etilmagan yana bir muhim muammo bor. Toshkent, Samarqand va boshqa viloyat markazlarida turli-tuman musiqa janrlari vakillari o'z san'atlarini namoyish qiladigan konsert zallari mavjud. Shu bilan bir qatorda hech bo'lmasa poytaxtda yana bir konsert zali – o'zbek xalq musiqasi zali bo'lishini istardim. U milliy san'atning chinakam xazinasini bo'lib qolardi. Bu zal foyesida xalq musiqa asboblari, xalq amaliy san'ati ko'rgazmasini tashkil qilish, uning

sahnasida xalq musiqasi asosida solistlar, xor, xalq cholg‘u asboblari orkestrlari chiqishlari mumkin bo‘lardi.

Shu yerda shuni ham aytib o‘tishim zarurki, bitiruv malakaviy ishni yoritishimda Toshkent shahar markaziy kutubxonasi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat universiteti kutubxonasi materiallari va adabiyotlaridan, Namangan Davlat universiteti filologiya fakultetining folklorshunos olimlarining maslahatlaridan va ularning shaxsiy kutubxonasi manbalaridan, viloyat o‘lkani o‘rganish muzeyi materiallaridan va vaqtli matbuotda berilgan mavzuinga oid maqolalardan erkin, ijodiy tarzda foydalandim. Shular asosida baholi qudrat mavzuimni yoritishga harkat qildim<sup>19</sup>.

Bitiruv malakaviy ishini yoritishda shu narsaga amin bo‘ldimki, insonning badiiy didi yuksak musiqa asarlarini kuylash va tinglash jarayonida shakllanar ekan. O‘zbek xalq qo‘shiqlari esa ana shunday yuksak musiqa asarlari sirasiga kiradi. Estetik tarbiyaning eng muhim qismlaridan biri – badiiy tarbiya insonning san‘at asarlarini idrok etishdan iboratdir. Musiqa asarini tushunish va go‘zal tuyg‘ular hayajonini tuya olish badiiy hissiyotning quvvatiga bog‘liq. Badiiy hissiyoti yuksak odamlar eng murakkab musiqa asarlarining mo‘jizakor kashfiyotlarigacha ilg‘ay oladilar. Chunonchi, xalqimizning “Dugoh”, “Segoh”, “Navo”, “Suvoriy”, “Uforiy”, “Mo‘g‘ulchai navo”, “Yovvoyi chorgoh”, “Soqiynomai savtisarvinoz”, “Ufori uzzol” singari yuksak musiqa durdonalarining mohiyatini his qilish uchun badiiy hissiyot barkamol bo‘lmog‘i kerak. Zamonaviy musiqa asarlarini chuqur idrok etib, professional ijrochilar san‘atidan bahramand bo‘lish inson madaniyatini boyitadi. Yaxshi musiqalarni tanlab tinglashning o‘zi bir san‘at. Badiiy didi yuksak kishilar eng yaxshi musiqa asarlarini tanlay oladilar.

Badiiy tarbiyani g‘oyaviylikdan ajratish mumkin emas. G‘oya badiiylikning ichki mohiyatini anglatuvchi tushunchadir. G‘oyasiz badiiylik puch yong‘oqdir.

---

<sup>19</sup> Muzayana Alaviya. O‘zbek marosim qo‘shiqlari. Toshkent, 1980 y.



Musiqaning g'oyaviy mazmuni kishilarda do'stlik, vatanparvarlik va mehr-vafo tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Aristotel ta'biri bilan aytganda "Musiqa qalbning ahloqiy-etik jihatlariga ta'sir ko'rsata olish layoqatiga qodir. Modomiki, musiqa shunday xususiyatlarga ega ekan, demak u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga kiritilmog'i lozim." Musiqa tarbiyasi jamiyatning eng murakkab va doimiy jarayonidir<sup>20</sup>.

Musiqa insonning xotirasini va ritmik tuyg'usini o'stiradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi. Musiqiy qobiliyatning o'sishi musiqa asarlarini badiiy idrok etib, undan estetik zavq ola bilishga o'rgatadi, natijada shu san'atni sezuvchi va qadrllovchi kishilarni tarbiyalaydi. Badiiy barkamol va g'oyaviy yuksak musiqa asarlari jamiyat kishisining ahloq me'yorlariga mos bo'lib, musiqiy tarbiyaning muhim qismidir. Musiqa san'ati insonning go'zalligi va nafosat haqidagi tasavvurini kengaytiradi, mehnat jarayonida ilhom va bitmas-tuganmas quvonch baxsh etadi. Musiqaning ta'sirchan kuchi olijanob fazilatlarni kamol toptiradi, ma'naviy va ahloqiy go'zallik olamiga yetaklaydi. Xalq kuylari, klassik qo'shiqlarining estetik va ahloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

## XULOSA

Xalq qo'shiqlarini, yumshoqroq qilib aytganda, takomiliga yetkazilmay ijro etiladigan holatlar hozir ham uchrab turadi. Bunday qo'shiqlar malakasi past, xalq ijodiy an'analari sohasida chuqur bilimga ega bo'lmagan kishilar tomonidan ishlanadi. Bunday musiqachilar qo'shiqni ishlash – unig melodik negizini saqlab qolish, uni yanada ohangdorroq, koloritliroq qilish ekanligini unitib qo'yishadi.

---

<sup>20</sup> Muzayana Alaviya. O'zbek marosim qo'shiqlari. Toshkent, 1980 y.

Buning uchun esa xalq yaratgan qo‘shiqlarni chuqur tushunish, uni samimiy xurmat qilish va sevish ham kerak.

Bizda folklorga munosabatda xato yo‘ldan boradigan – ko‘r-ko‘rona nusha ko‘chiradigan ayrim ijrochilar, ba‘zan esa hatto kichikroq jamoalar ham bor. Hozir kim “sof” xalq ohangida qo‘shiq aytadi? Albatta, qariyalar-da, deb o‘ylashadi ular. Shu tariqa qariyalar ijro etgan qo‘shiqlarni vijdonan, pishiq-puxta qilib yozib olib, bu qo‘shiqni qariyalar ijro etganini, ular endi aslo yoshlikdagi kabi qo‘shiq ayta olmasligini unitib qo‘yib, qanday eshitishgan bo‘lsa, shunday ijro etishaveradi. Bu ishda, xalq qo‘shiqlarini ijro etish go‘zalligiga ziyon yetkazmagan holda, ijodiy, tanlab yondoshish zarur.

. Menimcha, hali hal etilmagan yana bir muhim muammo bor. Toshkent, Samarqand va boshqa viloyat markazlarida turli-tuman musiqa janrlari vakillari o‘z san’atlarini namoyish qiladigan konsert zallari mavjud. Shu bilan bir qatorda hech bo‘lmasa poytaxtda yana bir konsert zali – o‘zbek xalq musiqasi zali bo‘lishini istardim. U milliy san’atning chinakam xazinasini bo‘lib qolardi. Bu zal foyesida xalq musiqasi asboblari, xalq amaliy san’ati ko‘rgazmasini tashkil qilish, uning sahnasida xalq musiqasi asosida solistlar, xor, xalq cholg‘u asboblari orkestrlari chiqishlari mumkin bo‘lardi.

Shu yerda shuni ham aytib o‘tishim zarurki, bitiruv malakaviy ishni yoritishimda Toshkent shahar markaziy kutubxonasi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat universiteti kutubxonasi materiallari va adabiyotlaridan, Namangan Davlat universiteti filologiya fakultetining folklorshunos olimlarining maslahatlaridan va ularning shaxsiy kutubxonasi manbalaridan, viloyat o‘lkani o‘rganish muzeyi materiallaridan va vaqtli matbuotda berilgan mavzuinga oid maqolalardan erkin, ijodiy tarzda foydalandim. Shular asosida baholi qudrat mavzuimni yoritishga harkat qildim<sup>21</sup>.

---

<sup>21</sup> Muzayana Alaviya. O‘zbek marosim qo‘shiqlari. Toshkent, 1980 y.



Bitiruv malakaviy ishimni yoritishda shu narsaga amin bo'ldimki, insonning badiiy didi yuksak musiqa asarlarini kuylash va tinglash jarayonida shakllanar ekan. O'zbek xalq qo'shiqlari esa ana shunday yuksak musiqa asarlari sirasiga kiradi. Estetik tarbiyaning eng muhim qismlaridan biri – badiiy tarbiya insonning san'at asarlarini idrok etishdan iboratdir. Musiqa asarini tushunish va go'zal tuyg'ular hayajonini tuya olish badiiy hissiyotning quvvatiga bog'liq. Badiiy hissiyoti yuksak odamlar eng murakkab musiqa asarlarining mo'jizakor kashfiyotlarigacha ilg'ay oladilar. Chunonchi, xalqimizning “Dugoh”, “Segoh”, “Navo”, “Suvoriy”, “Uforiy”, “Mo'g'ulchai navo”, “Yovvoyi chorgoh”, “Soqiynomai savtisarvinoz”, “Ufori uzzol” singari yuksak musiqa durdonalarining mohiyatini his qilish uchun badiiy hissiyot barkamol bo'lmog'i kerak. Zamonaviy musiqa asarlarini chuqur idrok etib, professional ijrochilar san'atidan bahramand bo'lish inson madaniyatini boyitadi. Yaxshi musiqalarni tanlab tinglashning o'zi bir san'at. Badiiy didi yuksak kishilar eng yaxshi musiqa asarlarini tanlay oladilar.

Badiiy tarbiyani g'oyaviylikdan ajratish mumkin emas. G'oya badiiylikning ichki mohiyatini anglatuvchi tushunchadir. G'oyasiz badiiylik puch yong'oqdir. Musiqaning g'oyaviy mazmuni kishilarda do'stlik, vatanparvarlik va mehr-vafo tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Aristotel ta'biri bilan aytganda “Musiqa qalbning ahloqiy-yetik jihatlariga ta'sir ko'rsata olish layoqatiga qodir. Modomiki, musiqa shunday xususiyatlarga ega ekan, demak u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga kiritilmog'i lozim.” Musiqa tarbiyasi jamiyatning eng murakkab va doimiy jarayonidir. Musiqa insonning xotirasini va ritmik tuyg'usini o'stiradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi.

### *Foydalanilgan adabiyotlar:*

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishish kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahamasining 2016yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi.//Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar №11
2. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz.T."O'zbekiston" 2017 yil.
3. Sh.M.Mirziyoyev . Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" NMIU,2016 yil.
4. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligi garovi. "O'zbekiston" NMIU,2016 yil.
5. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.
6. Suxomlinskiy V.Tarbiya haqida. Toshkent, 1980 y.
7. Shostakovich. Besed D a s molodejyu. Moskva, 1969 y.
- 8..Talliboyev N. Musiqiy meros va tarbiya. Toshkent, 1982 y.
- 9.O'zbek muzikasi tarixi. Toshkent, "O'qituvchi", 1981 y.
- 10.Yo'ldosheva S.. O'zbekistonda muzika tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. Toshkent, "O'qituvchi", 1985 y.
- 11.Jomiy A. Musiqa haqida risola. Toshkent, "Fan", 1980 y.
12. O'zbek xalq musiqa ijodi. I qism, Toshkent, 1994 y.
- 13.Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi.2-qism.Toshkent, 2000 y.
14. Matyoqubov O.. Og'zaki an'anadagi professional musiqa



- asoslariga kirish. Toshkent, "O'qituvchi", 1983 y.
15. Boychechak. Bolalar folklori. Toshkent, 1984 y.
  16. Nurmatov H., Ibrohimov O. Musiqa 6-sinf. Toshkent, 1997 y.
  17. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi.  
Toshkent, "O'qituvchi", 1995 y.
  18. Muzayana Alaviya. O'zbek marosim qo'shiqlari. Toshkent, 1980 y.
  19. O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. I tom. Toshkent, 1988 y.
  20. Kaykovus Qobusnoma.. Toshkent, "O'qituvchi", 1967 y.
  21. O'zbek xalq musiqa merosi. I- II kitob. Toshkent, 1978, 1985 y.
  22. O'zbek xalq musiqasi. I-V tomlar. Toshkent, 1955-1958 y.
  23. Abu Ali ibn Sino. Javomi ilmi musiqa. Qohira, 1965 y.
  24. Abu Nasr Forobiy. Katta muzika kitobi. Qohira, 1967 y.
  25. Hasanov A.. Xalq musiqasi – tarbiyaning muhim vositasi.  
Toshkent, 1983 y.
  26. <http://G'G' Ziyonet.uz>